

Biz nega 4 yil institutda o'qidik?!

Pedagogikani o'qimaganlar, bolalarni sevmaydiganlar, maktabdan manfaat izlovchilar, maktabni kun ko'rish manbayi deb biluvchilar, tanish-bilish orqali ishga kirganlar, kimningdir erkatoylari yo katta-konlarning darsga kelmaydigan xotinlari, qizlari evaziga shu ahvolga kelmadikmi?

2-bet

Federatsiyaning muammolari

ko'plab chempionlarni yarim yo'lda

"sindiryapti"

2013-yilda to'rt sport turi — suzish, suv polo-si, sinxron suzish va suvga sho'ng'ish bo'yicha yangi federatsiya tashkil etildi. Ammo hozirgacha ushbu yo'nalishning o'z sport bazasi yo'q. Bu esa shu yo'nalishlar bo'yicha shug'ullanayotgan sportchilarning o'sishiga to'sqinlik qiladi.

7-bet

Temir jon iztiroblari

(Jontemir ijodiga bir nazar)

Keling bugunga, hozirga, biz bilan bir havodan simirib turgan ijod ahliga yaqinlashaylik. Ana shu muhitning nisbatan pok, sanoqli va qayg'uli tomonlarida bir shoir yashaydi. Darveshlarcha bo'lsa-da, har holda, yashashga monand yashayapti, ijod qilyapti.

11-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 7-aprel, chorshanba № 14 (9339)

Xalq ziyolilari gazetasi

Fikr,
mulohaza,
taklif


Najot ilmda

Alifbo masalasi bugun mamlakatimiz bo'ylab keng muhokama qilinmoqda. Buning sababi, birinchidan, alifbo hammaga havo va suvdek zarur vosita. Uning qulayligi barchamiz uchun foydali. Ammo bu muammoning yechimi minbarlarda bong urilayotganidek jo'n ish emas. Qimmatlari esa vaksina darajasida muhim. Muammoga salbiy asorat qoldirmaydigan yechim zarur. Bu masalaga ilmiy yo'l bilan yondashishni taqozo etadi.



3-bet

Qalbidaryo vazir, mehridaryo muallim edi



8-9-bet

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?

Keyingi paytda o'qituvchilar ustama, dars soatlarining qisqarganligi va maosh masalasini ko'p muhokama qilishyapti. Ba'zi vaqtlari esa turmushdagi muammolar chalg'itib qo'yimoqda. Ammo biz, pedagoglarning asosiy maqsadimiz yosh avlodni tarbiyalash ekanini unutmasligimiz kerak. Boisi, jamiyatning kelajagi biz tarbiyalayotgan, ta'lim berayotgan yoshlarning salohiyatiga bog'liq.

Normamat ESHONQULOV

Attestatsiya savollarida ikkita masalaning javobi chiqmadi, apellyatsiyaga berdim. Aytishlaricha, savollarda xatolik bo'lsa, ball qo'shilishi kerak ekan. Ammo meni o'ylantirgani savollarning tushunarsiz tuzilganidir. Qolaversa, kitoblarda mavjud bo'lmagan mavzu bo'yicha savollar ham bor. Bu kabi holatlar deyarli har yilgi attestatsiya savollarida uchraydi. Bunday muammolar pedagogning toifa olishini qiyinlashtirish uchun o'ylab topilmaganmikan!?

Madinaxon NIZOMOVA

Test savollari "Ma'rifat"da chop etiladi

Bu yil ham Davlat test markazi va "Ma'rifat" gazetasi hamkorligi davom etishini ma'lum qilamiz. Abituriyentlarning test sinovlariga puxta va samarali tayyorgarlik ko'rishiga ko'maklashish maqsadida gazetamizning navbatdagi sonlarida imtihon olinadigan fanlar bo'yicha

Davlat test markazining aprobatatsiyadan
o'tgan test savollarini e'lon qila boshlaymiz.

Gazetamizga obuna bo'lishni istasangiz, hududingizdagi "Matbuot targatuvchi" va pochta bo'limlariga murojaat qilib, obunani rasmiylashtiring. Shuningdek, test savollari "Ma'rifat" mobil ilovasida ham berib boriladi. "Ma'rifat"ga obuna bo'ling va test savollari bilan tanishishga tayyorgarlikni hozirdan boshlang!

Marifat

DTM

Obuna
indeksi - 150.

www.marifat.uz

/marifat.uz

@marifatziyo

O'quv yilining ayni davrida onlayn ta'lim olayotgan o'quvchilar ham bor. Ular zimmasiga kundalik.com elektron tizimi orqali mavzuni o'zlashtirish hamda uy vazifalarini topshirish yuklatilgan. O'quvchilar va ularning ota-onalari ko'pincha uy vazifasi joylashtirishda muammoga uchrayotgani, "texnik xato" degan yozuvli to'siq chiqayotganidan norozi bo'lishyapti. To'g'ri, vazifa joylash uchun fayl va o'chovli rasmlar kabi elektron talablar qo'yilgan. Bu murakkabliklar bois o'quvchilarning logini va parolini terib sinf rahbarlari kundalik.com to'ldirishga majbur bo'lishyapti.

Umida XUDOYBERDIYEVA

Har qanday mutaxassis o'qituvchilik qilavermasligi kerak

Yaqin kunlarda "Keyingi o'quv yilidan boshlab, nopedagogik mutaxassislikda o'qiyotgan talabalar ham bemaol maktabda ishlashi mumkin", degan xabar juda ko'pchilikni o'ylantirib qo'ydi. Ayrimlar bu tizimni ijobiy deb baholayapti, ayrimlar esa salbiy. Mening oddiy bir fuqaro sifatidagi shaxsiy fikrim hali ham o'zgargani yo'q. Bu tizim joriy qilinishi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblayman.

Bundan roppa-rosa bir yil oldin abituriyentlarning pedagogik kasbiga layoqati aniqlanishi haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori loyihasida aytilgandi.

Buni qarangki, bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham nazarda tutilgan ekan. Mazkur qarorning 4-bandida pedagogika ta'lim sohasining bakalavriyat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilish jarayonida abituriyentlarning pedagogik kasbiga layoqati darajasini aniqlash mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish topshirig'i berilgan.

Anglagan bo'lsangiz, Prezidentning bu qarorida hamma ham o'qituvchi bo'lavermasin degan mazmuni tushunish mumkin. Ya'ni, oliy ta'limning pedagogika yo'nalishiga topshirmoqchi bo'lgan abituriyentlarning ham o'qituvchilikka qobiliyati bor yoki yo'qligini sinovdan o'tkazib, keyin o'qishga qabul qilinishi nazarda tutilyapti.

Agar mazkur qarorda berilgan top-

shiriq amalga ohsa, quyidagi tartiblar joriy qilinadi:

Abituriyentlarning pedagogik kasbiga layoqatini aniqlash 2021/2022-o'quv yilidan boshlab 5-iyundan 5-iyulga qadar Xalq ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirligining qarorlari (buyruqlari) bilan huzudlar hamda oliy ta'lim muassasalarida tuziladigan Maxsus komissiyalar tomonidan bajariladi.

Maxsus komissiyalar quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

pedagogika ta'lim sohasining bakalavriyat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilish jarayonida abituriyentlarning pedagogik kasbiga layoqati darajasini aniqlash uchun ekspertlar tarkibini tasdiqlash;

abituriyentlarning pedagogik kasbiga layoqati darajasini aniqlash uchun savollar bazasini shakllantirish;

pedagogik layoqatni baholash bo'yicha tasdiqlangan savollar bazasi asosida variantlangan savollar to'plami(biletlar)ni tasdiqlash;

abituriyentlar suhbatga jalb etiladi, jadvallar tasdiqlanadi va e'lon qilinadi.

Xullas, bu qarorda asosan mustaqil fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qo-



dir bo'lgan faqat professional pedagog kadrlarni yetkazib berish maqsad qilingan. Yangi o'quv yilidan esa "o'qituvchilik qonida bo'lsa bo'ldi, pedagogika yo'nalishida o'qimagan bo'lsa ham mayli" deb umuman pedagogika yo'nalishiga aloqasi bo'lmagan oliygo'hlarda ta'lim olayotgan talabalarga ham o'qituvchilik bilan shug'ullanishga ruxsat berib yuborishmoqchi.

Bundan maqsad esa kadrlar yetishmovchiligining oldini olish ekan. Bu masalani birgina hudud sharoitidan kelib chiqib hal qilmaslik kerak. Juda ko'p tumanlarda 7-8 soat dars uchun ishlab yurgan o'qituvchilar bor. Dars yo'qligidan majburan uzoq hududlarga borib, ijarada turib ishlayotganlar bor. Qirg'iziston, Tojikiston, Qozog'iston va boshqa davlatlardan o'qishini ko'chirib kelgan, sirtqi ta'limda o'qiyotgan talabalar bor. Hozir universitetlar ilgarigiga nisbatan 3-4 baro-

bar ko'p talabalarni o'qityapti. Uzoq'i bilan ikki yilda ularga ish topib berishning o'zi katta muammoga aylanadi.

Bir narsani tushunishimiz kerak. Hech kim nomutaxassis kadrlarni tayyorlaydigan barcha filiallarni birdek nazorat qilib, u yerdagi korrupsion holatlarning oldini ololmaydi. Hamma tizimning o'z ishlash prinsipi bor. Uni buzmaslik kerak. Yangilik olib kiranman deb, keyin afsuslanadigan ishlarni qilmaylik. Kollejar tizimi bunga yaqqol misol bo'ladi. Boshqa har qanday sohada tajriba o'tkazib ko'rish mumkin, lekin ta'lim tizimida hushyor bo'lib, yetti o'lchab bir kesishimiz kerak. Ta'lim tajriba quyonchasi emas, o'rtoqlar.

P.S.: Kimningdir o'qituvchilik qilish "qonida" bo'lsa, marhamat qilib, pedagogika yo'nalishiga ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlariga o'qishga topshirsin.

Ulug'bek PO'LATOV,
pedagog-blogger

Kun mavzusi

Biz nega 4 yil institutda o'qidik?!

Biz nega 4 yil institutda o'qidik?! Nega amaliyotda domlalar chig'irig'idan o'tdik, kechalari uxlamay kitob titdik? Bir dumalab, mulla bo'lganlarga nonimizning yarmini berish uchunmi?!

Mustaqillik boshlangan davrlarni xo'rsinib eslayman: non topib bolalarimizning qornini to'ydirish mushkul edi. Darsiga kech qolishni o'ylab, navbatini tashlab kelgan beva hamkasbimiz unsiz qolib, "Endi yetimlarim nima yediraman?", deb qaqshagan, ungira bir kosadan u berганиmiz esimda. O'shanda maoshimizga qurtlagan makaron, sovin, gugurt, chek berishardi. Keyin ko'pchilik o'zini bozorga urdi: maktabda o'z kasbini juda sevadiganlar va bir amallab bolalarni aldash o'tiradiganlar qoldi. Oliy o'quv yurtlarida pul evaziga o'qishga kirish, hatto referatdan tortib, diplomgacha pulga yozib beradiganlar ko'paydi. Maktablar huvillab qoldi. Kimyo, matematika, fizika o'qituvchilari yetishmasdi. Kimyodan ekologiyani, yo qishloq xo'jaligini arang tugatganlar, matematika va fizikadan politexnika, hatto yengil sanoatni tugatganlar dars o'ta boshladi. Tumanimizdagi qishloq xo'jaligi kollejida jismoniy tarbiya, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari

tayyorlaydigan yo'nalishlar ochildi. Olti oylik o'qituvchilar tayyorlash kurslarini o'qiganlar odob-nomadan dars berishdi. O'shanda semvimi kasbini tashlab, boshqa sohaga o'tmoqchi bo'lganman ham. Bugungi ta'limning zamon talablariga javob bera olmayotganiga sabablardan biri ham bir paytlar ta'limga nomutaxassislarning aralashib qolgani emasmi?! Pedagogika institutlarida imtihonni pul evaziga yopishning hali ham borligi chalamulla xodimning paydo bo'lishiga zamin yaratmaydimi?!

Esimda, bir OTM rektoriga yig'ilishda shu savolni bersam, u maktablar savodli ta'lim bermayotganini aytib, bahona qildi. Xo'p, maktab sifatsiz kadr chiqarsa, uni oliy o'quv yurtiga qabul qilish shartmi? Esingizdami, biz o'qigan davrlarda imtihonlarga qanday tayyorlanardik, rahmatli domlalarimiz qanchalar qattiqqo'l va talabchan edilar. Men fors tili domlamiz Husan Muzaffarov aka-ni darsidan oldin qizlar pardozlarini artib, timoqlaridagi lakni

ko'chirishlarini, akademikning qizi va rektorning o'g'li bo'lgan kursdoshlarimiz ham darsga qattiq tayyorlanganlarini, imtihondan o'tolmay qiyналganlarini eslayman. Imtihonlarga juda qattiq tayyorlanardik. Balki shuning uchun yaxshi mutaxassis bo'lib yetishgandimiz.

Maktablarda ham, OTMdada ham hech kim imtihondan yiqilmadi o'tish davrida, Rossiya-ga ketib qolgan o'quvchini sinfda qoldirganimda, mudir kinoyalar qilib, bizni ish bilmaslikda aybladigani.

Maktablardagi chaqqon, har yerda o'z kunini ko'ra oladiganlar bozorga ketib, ta'limda o'rtamiyonalar, maktabni o'ta sevguvchilar va nomutaxassislar qolishgandi. Hozirgacha sertifikat bilan ishlayotganlar bor. Bugun savodsiz, raqobatga javob bera olmaydigan kadrlar tayyorlanayotganiga kim aybdor? O'sha chalamullalar, institutni pul bilan bitirganlar, pedagogikani o'qimaganlar, bolalarni semvimidiganlar, maktabdan manfaat izlovchilar, maktabni kun ko'rish manbayi deb biluvchilar, tanish-bilish orqali ishga kirganlar, kimningdir erkatoylari yo kattakonlarning darsga kelmaydigan xotinlari, qizlari evaziga shu ahvolga kel-

madikmi? Keyingi vaqtlarda ko'p qusurlarga barham berilgani rost. Ta'limda ham sifat sari intilish boshlangandi. Lekin maktablar ko'rsatkichi faqat OTMlarga kirish ko'rsatkichi bilan o'lchani-shi noto'g'ri. Bu yil maktabimizni 122 nafar o'quvchi tugatadi, ularning kamida 20-25 nafari oily ta'limga hujjat topshira olmaydi. Ota-onasi ajrashib, qarindoshi qo'lida qolganlar, uyi yo'q o'quvchilar, dadasi, yo onasi vafot etgan o'quvchilar ro'zg'or aravasi-torishga majbur. Ularga qorin to'ydirish, kun ko'rish muammo. O'tgan yili 102 bitiruvchidan hujjat topshirmaganlar, yoki 150-160 ball bilan ijtimoiy sohani tanlab super kontraktga erishganlar, xorijiy OTMlarga kirganlar bo'ldi. 35 nafar bitiruvchimiz OTMga kirsam, sariq toifada qoldik. 10 grant, 18 kontrakt, 2 xorij, 5 nafar superkontrakt bo'ldi. Qo'shni maktabda 70-80 ball bilan grantga kirganlar bor, bizning 150 baldan oshiq to'plab, superkontraktga qolganlar hisobga olinmadi. Unda o'quvchisi 70-80 ball bilan OTMga kirsam, ularning ta'limi sifatli, bizning 150 ball to'plab, superkontraktga qolgan o'quvchiga bergan ta'limimiz sifatsizmi? Yo men matematikani noto'g'ri o'qiganmanmi?

Bitiruvchiga berilgan ta'lim sifati hujjat topshirganlarning to'plagan o'rtaacha balidan hisoblangana, adolatliroq bo'lardi. Biz xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha tayanch maktablardan birimiz. Kuchli o'qituvchilarimiz trenerlar, darslaridan bo'shab, seminarlar o'tishadi, yo'lkira to'lab, Nukus, Xo'jayli-ga borishadi. Oldin ham darsliklar sinovi, DTS sinovi bo'yicha tajriba-sinovlar olib borganmiz. Ajablanarlisi, bu narsalar o'qituvchiga ustama berishda yo maktablar reytingini belgilashda ham hisobga olinmas ekan!

Mayli, bu ham bir gap. Prezidentga taklif kirituvchilar faqat Toshkent shahridagi holatni hisobga olishadimi? Har yili pedagogik OTMni tugatganlar ish topa olmay sarson, endi nopedagoglar ham ularning noniga sherik bo'larmish?! Tumanimizda o'qituvchi ko'p, maktablarda stavkasi to'liq o'qituvchilar kam, 2-3 soat uchun ishlayotganlar ko'pchilik maktabda bor. Tavbangan ketay, endi nomutaxassislar, ya'ni sertifikatchilar pensiyaga ketadigan davr kelyapti, endi haqiqiy mutaxassislar kelyapti, deb bekor sevinibmiz!

Sanobar XO'JAMURODOVA,
Amudaryo tumanidagi
40-maktab direktori,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi deputati,
Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq o'qituvchisi

Fikr, mulohaza, taklif

Najot ilmda

Alifbo masalasi bugun mamlakatimiz bo'ylab keng muhokama qilinmoqda. Buning sababi, birinchidan, alifbo hammaga havo va suvdek zarur vosita. Uning qulayligi barchamiz uchun foydali. Ammo bu muammoning yechimi minbarlarda bong urilayotganidek jo'n ish emas. Qimmatlari esa vaksina darajasida muhim. Muammoga salbiy asorat qoldirmaydigan yechim zarur. Bu masalaga ilmiy yo'l bilan yondashishni taqozo etadi. Mana, yosh olimlarimiz Eldor Asanov, Komil Jalilov, Shokir Yo'ldosh, Shohro'z Mo'minzoda qimmatli ilmiy fikrlarni bayon etishmoqda. Biz ularning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lishimiz, takliflariga (bizga yoqish-yoqmasligidan qat'i nazar) keng yo'l berishimiz kerak. Zero, ilmiy yechim ijtimoiy tarmoqlardagi baqir-chaqirlarda emas, ilmiy bahslarda tug'iladi.

Muhokamalarda bildirilayotgan fikrlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) mavjud *sh, ch, g', o'* harf va harf birikmalarini almashtirish;

2) ular bilan birga *ng* harfini bitta shaklga keltirish;

3) unli harflar sonini 9 taga yetkazish;

4) *x* va *h* harflarini birlashtirib yuborish;

5) o'zbek alifbosini *sex* so'zini yozishga moslash.

Men ham Feysbukdagi sahifamda tilshunos mutaxassis o'laroq (ammo alifbosunos emasman) bu boradagi o'z fikrlarimni aytgan edim. Ammo, modomiki, isloh qilar ekanmiz, yondashuvni o'zgartirishimiz lozim, masalani yechish taktikasi istiqbolli bo'lishi kerak.

Alifbomizdagi asosiy kamchiliklarning ikkita sababi bor:

1) 90-yillarda yangi alifboning shoshmashosharlik bilan qabul qilinganligi;

2) masala yechimiga chuqur va tizimli ilmiy yondashuv shakllanmaganligi.

Alifboni isloh qilish bo'yicha qonun loyihasi e'lon qilindi. Jamoatchilik fikri olindi, endi qonun chiqarishga shoshilmaslik, fikrlardan kelib chiqqan holda ilmiy tadqiqotlarga navbat berilishi kerak. Muammo 2-3 yil mutaxassislar doirasida bafurja ilmiy o'rganilishi lozim. Bizda hali oddiygina masala – harflarning foizlardagi ifoda qiymati aniqlanmagan. Har bir harfning lisoniy va nutqiy ifoda qiymati aniqlanishi, kerak bo'lsa, har bir harfning "pasport"i shakllantirilmog'i, harf almashtirilishi bilan bog'liq ehtimoliy muammolar prognoz va tahlil qilinishi zarur.

Xullas, masalaga faqat siyosiy va ma'muriy emas, balki ilmiy yondashish – davr talabi. Islohnining samarasi va zararlari aniq hisob-kitob qilinishi lozim. Ayanchli tomoni shundaki, hanuz o'zbek alifbosi va imlosi bo'yicha tadqiqotlar olib borilmayapti, dissertatsiyalar himoya qilingani yo'q. Alifbomizning ham, imlomizning ham ilmiy poydevori mavjud emas. Bo'lsa ham, u – kirill alifbosi va u asosdagi imlo qoidalari.

Islohdada milliy yoki etnik ehtirolarga berilmaslik, taqlidchilikdan voz kechilishi, mustaqil fikr bilan yonda-

shish ustuvor bo'lishi, masalaga shuhrat emas, milliy yuksalish vositasi sifatida qaramoq lozim. Avvalo, o'tgan asr 90-yillarida bu borada yo'l qo'yilgan xatoliklar har jihatdan sarhisob qilinishi, ulardan tegishli xulosalar chiqarilishi zarur. Masalan, oddiy bir masala – *Ch* ni ifodalash uchun "dumli" *C* dan foydalanishni olaylik. Zotan o'zbek-lotin alifbosida *C* harfi yo'q, ammo kompyuter klaviaturasida "bekor" turibdi. Yo'q harfga "dum" qo'yishning nima keragi bor. U "dumsiz" ham *Ch* ni ifodalayveradi-dum!

Alifbo qancha mukammal bo'lsa, shuncha yaxshi. Ammo mukammallik deganda nimani tushunish kerak? Bexato yozishmi, tildagi barcha tovushlarni yozuvda ifodalashmi, boshqa turkiy xalqlar bilan yaqinlashishni ta'minlashmi, bir lahja manfaatlarimi, dasturlashni osonlashtirishmi?

Aslida savodxonlik harflarning ko'pligiga emas, balki alifboning ixchamligiga bog'liq. Kompyuterning bitta tugmasi bilan bitta harfini yozish qulay va oson, albatta. Ammo bu qulaylikning qimmatlari qancha? Agar ushbu amal samarador bo'lsa, nega kompyuter tiliga asos bo'lgan ingliz alifbosida bu inobatga olinmagan? Bizda bu borada tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlari o'tkazilmadi-ku hali. O'zbek tilida ingliz tilidagi kabi harflarning ifoda qiymati foizlarda aniqlanganmi? Masalan, u tilda *E* eng yuqori ifoda qiymatiga ega – 12 %, *Z* – eng past qiymatli – 0,05 %. Yuqori ehtimol bilan tilimizda *A* eng yuqori, *ng* eng past ifoda qiymatiga ega. Bu – lisoniy qiymat. Nutqda-chi? Buning uchun harflarning qo'llanish chastotasi statistik metod yordamida aniqlanishi kerak. Shuningdek, agar o'zbek tilidagi "yo'g'on" va "ingichka" o'z tovushlari (yo'g'on – *a'lochi bo'l*; ingichka – *olmani bo'l*) va "yo'g'on" va "ingichka" u tovushlari (yo'g'on – *qalamning uchi*; ingichka – *yigirma uch*)ning ifoda qiymati aniqlanmasdan ularga 2 tadan harf ajratish asossiz bo'lib qoladi. To'g'ri, ular mustaqil 4 ta fonema, fonematik nazariyaga ko'ra, ularga alohida-alohida harf tayinlash kerak. Ammo ifoda qiymati past bo'lsa, ularga alohida-alohida harf ajratmasdan, muammo transkripsiya vositasida hal etiladi, yaqin

fonemalar bir harfga birlashtiriladi. Ammo bu "yaqinlik" ham ilmiy asoslab berilishi zarur. Shuningdek, bu ikki juft unli o'zbek tilining barcha lahjalarida bir xil uchraydimi? Agar hamma lahjalarning barcha tovushlarini tenglik tamoyili nuqtayi nazaridan harf bilan ta'minlaydigan bo'lsak, unda alifbomizda 50–60 ta harf bo'lishi kerak. Bunda esa alifbo transkripsiya aylanib qoladi. O'zbek tilida sirg'aluvchi *J* (*fyuri, jurnal, mujda*) fonemasi bor, ammo sanoqli so'zlardagina uchraydi. Shuning uchun unga o'zbek kirill alifbosida ham harf berilmagan, o'xshashi – portlovchi *J* bilan bir harf ostiga joylashtirilgan edi.

Ayrimlar, katta yoshli filologlar ham o'zbek tilidagi *X* va *H* harflari o'rni-ga turk tilidagi kabi bitta *H* harfini olish tarafdoridirlar. Holbuki turk tilida *X* fonemasi va, shunga muvofiq, *X* harfi ham yo'q. O'zbek adabiy tilidagi leksemalarda esa *H* harfi 2.2 foizlik, *X* harfi 1.9 foizlik ifoda qiymatiga ega. Ko'rinadiki, ular orasida farq unchalik katta emas. Agar bu harflardan biri arzimasa foizga ega bo'lganda edi, savodxonlikni ta'minlash ehtiyoji bilan har ikki fonema uchun bitta harf tayinlash mumkin edi.

Harflarning leksemalardagi qo'llanish va uchrash statistikasi

O'zbek tilining imlo lug'atidagi jami 83910 ta so'z asos qilib olindi (harflar miqdori va birinchi harfiga ko'ra)

Harf	Soni	Foizda	So'z boshida kelishiga ko'ra	Foizda
a	100273	13,195	5825	6,942
i	86038	11,322	2825	3,367
o	62203	8,185	2927	3,488
l	54259	7,140	1280	1,525
r	48861	6,430	1667	1,987
t	42113	5,542	6892	8,214
m	33548	4,415	5035	6,000
n	33257	4,376	2077	2,475
k	32106	4,225	5699	6,792
q	26267	3,456	4795	5,714
s	25490	3,354	5627	6,706
u	23764	3,127	1537	1,832
e	20915	2,752	1855	2,211
y	20154	2,652	3272	3,899
sh	18658	2,455	2096	2,498
d	16594	2,184	3372	4,019
b	15572	2,049	6651	7,926
v	14678	1,931	1422	1,695
z	13937	1,834	1198	1,428
ch	12765	1,680	2534	3,020
g	10922	1,437	3080	3,671
p	10818	1,424	3270	3,897
o'	8298	1,092	1371	1,634
f	6566	0,864	1497	1,784
h	5385	0,709	1886	2,248
x	5378	0,708	1664	1,983
g'	5150	0,678	1133	1,350
j	4191	0,551	1423	1,696
ng	1771	0,233	0	0,000
jami	759931	100,000	83910	100,000

Alifbodan ko'zlangan bosh maqsad – harfda tovushlarni emas, balki fikrni ifodalash. Holbuki, joriy alifbomizda bitilgan matnlarda isloh qilinishi taklif etilayotgan harflar bilan bog'liq ravishda fikr anglashilmay qolishi holati sodir bo'ldimi? Shunday ekan, ko'p hollarda, 9 ta unli harf tarafdorlarida ilmiy tafakkur va milliy ruhdan ko'ra etnik ehtirol ustuvorlik qilayotganga o'xshaydi. Ular o'z shevalarini alifboga aylantirmoqchi bo'lishayotir, xolos. Fonema, tovush, harf munosabatini bilmasdan alifbo haqida gapirish mumkin emas. Zero, fonetik va fonematik alifbo farqlanadi. O'zbek alifbosida fonematik an'ana ustuvor bo'lib kelgan.

Xullas, alifboshunoslar va dasturchilardan iborat maxsus alifbo va imlo kengashi tuzilib, uning strategik va taktik vazifalari belgilanib olishi kerak. Ummun olganda, xalq savodxonligi uchun alifbo qulay bo'lishi, unga siyosiy, mafkuraviy qurol sifatida munosabatda bo'lmaslik lozim.

Bugun bizni yov quvib kelayotgani yo'q, shoshmashosharlik yana qator muammolarni keltirib chiqarmasligiga kim kafolat beradi? Achchiq xatolardan to'g'ri xulosa chiqaraylik. Milliy vazminlik, yetti o'lchab bir kesish – davr talabi. Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarmaylik.

Baxtiyor MENGLIYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor

Ta'kid

Adabiyot muallimi

Bir tanishim kuyinib aytib qoldi.

— Bir kuni qishlog'imiz maktabida adabiyotdan dars beradigan muallimdan:

— Domla, sizda Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani bo'lsa, ikki-uch kunga berib tursangiz, o'qib darrov qaytaradim, — deb so'radim. Muallim biroz o'ylanib turdi-da, "Qaysi Cho'lpon, ayol yozuvchimi, uning kitobi yo'q", deb javob berdi. Hayron bo'ldim, domla hazilashyapti deb o'yladim, yo'q, jiddiy so'zladi. Indamadim, muallimni uyaltirgim kelmadi, ammo ichimdan nimadir uzilib ketgandek bo'ldi. Nahotki, shu odam adabiyotdek mo'tabar fandan dars o'tsa, mendek oddiy hisobchi bilan ulug' adibni eshitmagan bo'lsa, degan xayolga bordim. Tag'in men nodon kitoblarni qiziqib o'qiydigan Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Nazar Eshonqul, Sobir O'nar va boshqa adiblar haqida saviyasi o'ziga yarasha muallimdan so'ramoqchi bo'libman-a, xayriyatki, hamma adabiyot o'qituvchilari ham shunday emas...

Shifoxonada yotardim, hamxonamning biri do'kon qorovu-li, yana biri payvandchi. Deraza yonida esa uzoq yillardan buyon maktabda adabiyotdan dars beradigan Toshqul muallim. Hamkasbim bilan maktab, adabiyot haqida suhbatlashmoqchi bo'ldim.

— Ey, qo'ying maktabni ham, o'sha adabiyotni ham, — dedi muallim tutoqib, — shularni deb boshog'rig'i degan dardni topdim, asli o'qituvchi bo'lib xato

qilgan ekanman, bo'lsam ham jismoniy tarbiyachi bo'lishim kerak ekan, to'pni bolalarga berib, maydonda bemalol aylanib yurardim.

Bilasizmi, besh-oltita faol, tinch yurmaydigan o'quvchilarim bor, "Qo'shni maktabda mushoira bo'libdi, badiiy kecha o'tkazishibdi, biz ham o'tkazaylik", deb boshimni qotiradi. O'shalardan bezor bo'lib, bahor kelishi bilan bolnitsaga yotib olaman.

— Darslar nima bo'ladi?

— Darsimni boshqa fan o'qituvchilari amallab turishadi, endi ular yosh, qiziquvchan, biz ishlab bo'ldik, bu yog'i na-faqaga ham besh-olti yil qoldi.

Shu payt xonaga qadrdonlarim Momoxol Elmurodova, Tursunboy Boymirov, Yo'ldoshbek Kenja, Temirpo'lat Tillayev kirib kelishdi. Ular bilan ancha fursat ijodiy ishlar, adabiyotdagi yangiliklar haqida suhbatlashdik.

Mehmonlar ketishgach, Toshqul muallim so'radi:

— Oshnalaringiz katta odamlarni deyman?

— Ha, katta odamlar, to'rtalasi ham shoir va yozuvchi.

— Ey, zo'r ekan, demak ular-ga amaldorlar "haq" berib turarkan-da... Siz ham anoyi emassiz, aytdim-a, do'xtir sizga boshqacha muomala qiladi, deb.

— Domla, chindan ham siz kelganlarni tanimadingizmi?

— Yo'q!

— Ular siz aytgandek ariza, shikoyat yozadigan "yozuvchi" emas, hikoya, she'r yozadigan muallim ijodkorlar, barisining kitoblari chiqqan.

— Uzar, uka, men darslikda

uchratmagan ekanman.

— Ha, ular darslikda yo'q, ammo adabiyotni deb ijod qilishmoqda, yashashmoqda...

Sakkizinchi sinfda o'qiydigan nevaram maktabdan kelib choy ham ichmasdan dars qilishga tushdi. Ayolim unga:

— Ha, qizim, senga nima bo'ldi, ikki kundan beri kitobdan bosh ko'tarmay qolding? — deb savol berdi.

— Risolat muallim she'r bergan edi, yod olmasam bo'lmaydi.

— Kimning she'ri, qizim?

— Mirzo Boburniki.

Ayolim jim qoldi va ohista buyuk shoirming mashhur ruboiylaridan birini yoddan ayta boshladi.

Nevaram hayratdan lol bo'ldi.

— Momo, siz bu she'rlarni qayerdan bilasiz?

— Eh, qizginam, — dedi ayolim kulib, — menga bu baytlarni bundan o'ttiz besh yil avval Abdi muallim yodlatgan. Hamon yodimdan chiqmaydi. Domlamiz darslarni shunday qiziqarli va jonli o'tardiki, qo'ng'iroq chaliganini ham sezmay qoldirik. Yana muallim o'zi yozgan she'rlardan ham o'qib berardi.

Darvoqe, Abdi muallim degani Qashqa vohamizdan chiqqan yagona masalchi shoir Abdovoy Rahim bo'ladi. Ajoyib muallim, shoir, adib, jurnalist. Butun umrini ma'rifatga, adabiyotga baxshida etgan inson edi rahmatli. Domlaning o'nga yaqin kitobi nashrdan chiqdi.

Nevaram esa Abdovoy Rahimni bilmaydi, "darslikda yo'q ekan", deydi...



Radiodan jozibali qo'shiq yangradi. Misralar tanish. Esladim, qoratepalik marhum shoir Abdumurod Qodir qalamiga mansub "Tunalar" she'rini O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tursunboy Parpiyev maromiga yetkazib kuylamoqda. Qo'shiq besamar afg'on urushidan omon qaytgan askar yigitlarga bag'ishlangan. Uning, "G'amgin daraxt qo'shig'i" deb nomlangan kitobi nashr etilgan. Qishlog'idagi maktabda rus tili va adabiyoti fanidan dars berardi...

Marhum Saodat Toji esa tug'ma bolalar shoiri edi. O'zi ham boladek beg'ubor edi rahmatli. Izzattalab emasdi. Doim ilhom og'ushida yurar, ozgina sarkashligi bor edi. Yozganlarini rus, ingliz, tojik tillarida yoddan o'qirdi. Kimdir aytgandi: "Agar shoir poytaxtdami yoki vodi tarafdami yashab ijod qilganida, allaqachon bolalar adabiyoti darsligidan o'rin olgan bo'lardi. Afsus..."

Viloyat gazetasi tahririyatida Abdunabi Abdiyev bilan tasodifan uchrashib qoldim. Ungacha ijodkor muallimning qalamiga mansub o'nlab qiziqarli, dolzarb mavzudagi esse va badiialarni, maqolalarni o'qigan edim. Mezb-on Nuriddin Egamov bizni bir piyola choyga taklif etdi.

Suhbatimiz adabiyot, shoir-ut adiblar haqida bo'ldi.

—Yaqinda "Sharq yulduzi"da navbatdagi qissam chiqadigan bo'ldi, — dedi Abdunabi kamtarinlik bilan.

Biz uni muvaffaqiyat bilan qutladik.

— Avval o'qib ko'ringlar, so'ngra tabrik aytasizlar.

— Shunday nufuzli jurnalda qissa bostirish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi, — dedim quvonib.

— Ey, hali rejalar ko'p, Xudoyim umr bersa bo'lgani, — dedi muallim-adib.

Abdunabi Abdiyev Mirishkor tumanidagi 22-maktabda direktor. Bir nechta kitobi chop etilgan, ijodiy tanlovlar g'olibi, "Oltin qalam" mukofoti sohibi. Faqat adabiyot darsligida hozircha nomi yo'q.

Adabiyot azim daraxt, unda ulkan shoxlar, yosh novdalar ham mavjud. Adabiyotni hamma o'qiydi, uning ixlosmandlari behisob. Shunday ekan, har bir o'quvchida biror asar, adib yoki shoirga oid savolning ham tug'ilishi bor gap. Ana shunda adabiyot o'qituvchisini axtaramiz. Adabiyot muallimi esa izlanuvchan bo'lishi, adabiy jarayonni sinchkovlik bilan kuzatishi, ijodkor bo'lmog'i lozim. Ana shunda "darslikda yo'q", degan bahonaga o'rin qolmaydi.

O'rolboy QOBIL

Qamashi

Sinab ko'ring

"O'qimaydigan avlod"ni kitobxonlikka qaytarishning bir yo'li



Yaqinda gazetada "She'riy jumboq" rukni ostida bir she'r o'qib qoldik. Erkin Vohidov qalamiga mansub ushbu kichkina (atigi sakkiz misralik) she'r butunligicha keltirilgan. Mana u:

...larim ikki saf bo'lib,
Bir-biridan yashaydi yiroq.
Bedorligim to'sib vasl yo'lin,
...larim chekadi firoq.

Men tun bo'yi toshdan gul yo'nib,
Ko'zim yumsam tongda bemajol,
Meni asta uxlatib qo'yib,
...larim aylarmish visol.

Gazetxonlardan uch nuqta o'rni so'z bilan to'ldirish va shu yo'li bilan ushbu jumboqning javobini topish so'ralgan edi. Tasvir shunchalar tiniqki, she'rni ikki marta o'qib chiqishga hafsala qilgan odam albatta jumboqning yechimini topadi. Savolning javobi "kiprik" ekanligini birinchi

o'qishdayoq bildik, albatta. Shu topda xayolimizga bir reja keldi va uni hamkasblarimiz bilan o'rtoqlashmoqchi bo'ldik.

Har bir shoir yoki yozuvchi ijodida "chiston" ko'rinishidagi she'rlar, lavhalar ko'plab topiladi. Masalan, Abdulla Oripovning "Temir odam", Shavkat Rahmonning "Suv", Oybekning "Na'matak" she'rlari yaxshigina she'riy jumboq bo'la oladi. O'qituvchi darsga kirib kelib, tegishli tarzda salomlashib olishi bilan, albatta, mashhur adiblar asarlaridan jumboq berishi va javobni topish uchun vaqt belgilashi besh tomonlama samara beradi deb o'ylayman. Birinchidan, o'quvchi o'rganilayotgan adibning ijodini qalban baholaydi; uning mahoratini his etadi;

tashbehlarining o'ziga xosligini anglaydi. Negaki, u savolga javob topish shavqi bilan jumboq she'r yoki lavhani bir necha marta o'qib chiqadi, so'zlarni "yorib" misraning (yoki jumlaning) ichiga kirib ketadi. Ikkinchidan, fikrlashni, mulohaza qilish, so'z vositasida tasvir yaratishni o'rgana boradi. Uchinchidan, o'quv fani obyektini, ya'ni rejalashtirilgan mavzuni o'rganish sari birinchi qadamni tashlaydi. To'rtinchidan, o'quvchi asta-sekinlik bilan mutolaa zavqini tuyib boradi, unda o'qishga ishtiyoq shakllanadi. Va nihoyat, beshinchidan, o'quvchida o'z fikrini bildirish layoqati paydo bo'ladi.

Keyin, jumboq sifatida berilajak iqtibosning albatta she'riy bo'lishi shart emas. Masalan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zamning kitob haqida aytgan atigi yigirmatacha so'zdan iborat chinakam hikmatli fiqrasi bor. Adib kitobning ahamiyatini shunchalar qisqa, lo'nda va ta'sir-

chan ifodalab berganki, gap nima haqida ketayotganligini har qanday odam ilg'ab oladi. O'sha fiqrani matn holida berib, "Kitob" so'zi o'rniga nuqtalar qo'yish yo'li bilan jumboq hosil qilish mumkin. To'g'ri, o'quvchilarning o'zaro munozaralari davomida tabiiy shovqin paydo bo'ladi. Bu hol tartibsizlik deb baholanmasligi, aksincha, qizg'in munozaralar belgisi deb qaralishi lozim.

Bizda kitob o'qimaydigan avlod paydo bo'ldi, deb ayyuhannos solishdan naf yo'q. Lekin odam tabiatida jumboqni yechishga ishtiyoq, savolning tagiga yetishga intilish kabi sifatlar hali so'nib tugamagan. Bu fazilat, ayniqsa, bolalarda kuchliroq bo'ladi. Biz esa ana shu imkoniyatdan foydalanishimiz va "o'qimaydigan avlod"ni kitobga qaytarishimiz kerak.

Dilsora ASTANAYULOVA,
Nasiba MAMAYUSUPOVA,
Termiz shahridagi
10-maktab o'qituvchilari

Alifbo loyiha ijodkorlarining mulki emas

Yozuv tilning aloqa vositasi sifatidagi vazifasini bajaruvchigina emas, tafakkurni shakllantirish, dunyoni ko'rish, bilimlarni to'plash, uni keyingi avlodlarga sog'lom yetkazish, his-tuyg'uni ifodalashdek ko'plab muhim vazifalarni ham bajaradi. Ana shu jarayonlarning murakkab kechmasligi uchun alifboning qulayligi muhimdir. O'zbek davlatchilligi tarixida bir necha bor alifbo almashtirilgani hammaga ma'lum.

Dunyo tajribasidan ma'lumki, mavjud alifbolarning hech biri mukammal emas, har qaysi alifbo ifoda imkoniyatiga qarab tildagi tovushlarni ifoda etadi. Shunday ekan, biz eng mukammal alifboni yaratamiz yoki yaratishimiz kerak, qabilidagi muddao o'rinsiz. Shu ma'noda amaldagi o'zbek-lotin alifbosi ham o'ta mukammallikka da'vo qilolmaydi, shu bilan birga, chorak asrdan ziyod vaqt mobaynida o'zbek xalqiga xizmat qilib keldi. Ana shu vaqt oralig'ida unda muayyan notamomliklar borligi ham ayonlashdi. Bugun davr bizga mazkur notamomliklarni to'g'ri lab olish, hozirga qadar lotin yozuvida ish yuritishda "qo'limizni bog'lab kelgan" muammolardan qutulish imkoniyatini berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" qarori bilan alifboni takomillashtirishning huquqiy asosi yaratildi.

Farmon va Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida tashkil etilgan ishchi guruh (bu guruha Yozuvchilar uyushmasi, Respublika ta'lim markazi va universitetlardan mutaxassislar jalb etilgan edi) tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonuni loyihasi ishlab chiqildi.

Dastlab ushbu qonun loyihasi tayyorlanishining qanday zaruriyati borligiga to'xtalib o'tsak:

birinchidan – amaldagi alifboda o', g' harflarini kompyuterda yozish uchun bir nechta ortiqcha amallarni bajarish lozim edi. Bunday ortiqcha amallardan qochish yoki ko'pincha o', g' harflaridagi ' belgisining ' – apostrof deb tushunilishi natijasida O'zbekiston, o'zbek, o'lka, G'ayrat, g'alaba, g'olib kabi imloviy xatolar bolalagandan bolalamoqda. Yana bir jihat: ona tili ta'limida agar urg'u tushgan bo'g'in tarkibida o', g' harflari bo'lsa, bu harflardagi ' belgisi bilan urg'u belgisi yonma-yon joylashadi hamda so'zni va urg'u tushgan bo'g'inni ilg'ash qiyinlashadi.

ikkinchidan – mavjud tajriba alifbodagi sh, ch harfiy birikmalarini "bir tovush – bir harf" tamoyilida tu-

zatish zarurligini ko'rsatdi; to'g'ri, shu vaqtga qadar bu harflardan foydalanib keldik, ammo qo'sh harflik muammosi "Imlo qoidalari"ga turli istisnolarni kiritdi. *Mo'tabar, mo'tadil, mo'jaz, mo'jiza* so'zlarining tutuq belgisi qo'yilmay yozilishi ham "Imlo qoidalari"ga kiritilgan istisnolardan biridir;

uchinchidan – o'zbek tilidagi *Ishoq, ashob* so'zlarini *Is'hoq, as'hob* tarzida to'g'ri yozish uchun, albatta, s va h harflari orasiga tutuq belgisini qo'yish kerak bo'lib, bu ham amaldagi alifboni o'zlashtirishda qiyinchilik tug'dirar edi. Bu qoidani bilmaslik oqibatida *Is'hoq, As'hobiddin* ismlarining *Ishoq, Ashobiddin* tarzida yozilishi haqida ham gapirib kelinmoqda;

to'rtinchidan – amaldagi o'zbek-lotin alifbosida so'z boshida kelmaydigan [ng] tovushi uchun Ng harfi ajratilgan edi. Shu bois loyihada so'z ichida va so'z oxirida keladigan [ng] tovushi uchun kichik ng harfinigina alifboga kiritish zaruriyati yuzaga keldi.

O'zbekiston Respublikasining "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonuni loyihasining asosiy maqsadi amaldagi o'zbek-lotin alifbosidagi yozilishi murakkab harflarning yozilishini soddalashtirish, harfiy birikmalarni "bir tovush – bir harf" tamoyiliga ko'ra ifodalash va alifboni takomillashtirishdan iboratdir.

Amaldagi alifboning tegishli o'zgartirish va to'ldirishlar bilan takomillashtirilishi yozuv amaliyotini osonlashtiradi, "Imlo qoidalari"da istisnoli holatlar yuzaga kelishining oldini oladi, milliy alifbomizning ilmiy-ta'limiy jihatdan puxta bo'lishini ta'minlaydi va pirovardida mamlakatimizda lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga to'liq o'tish borasidagi ishlarni jadallashtiradi.

Endi ushbu loyiha yuzasidan bildirilayotgan mulohazalarni ko'rib o'tsak (bunda bildirilgan fikrlarni hurmat qilishimizni ta'kidlab o'tamiz):

1. Faol bloggerlardan birining aytishicha, loyihada bitta "prinsip"ga amal qilib, uchala harfiy birikma uchun ham bir harf tanlanishi kerak. Loyihada sh, ch harfiy birikmalariga tanlanganidek, ng harfi uchun bir harfdan iborat belgi tanlanmaganining bosh sababi quyidagicha: agar [ng] tovushi istalgan boshqa bir harf bilan ifodalangudek bo'lsa, kirildan lotinga transliteratsiya qilishda *menga, senga, unga* singari n+g tarzidagi holatlarni tarjimon/lingvistik dasturlar farqlay

olmaydi hamda *tong, bong, ko'ngil, singil* so'zlaridagi ng tarzida transliteratsiya qiladi. O'zbekcha matnlarda bunday holatlar son-sanoqsiz. Bu muammo tarjima yoki yana boshqa lingvistik dasturlarning to'la kuch bilan ishlashiga to'siq bo'ladi.

2. Navbatdagi taklif milliy alifbodan ng harfini chiqarib tashlashdir. Biz uzoq yillar davomida o'zbek-kirill alifbosi tilimizning turkona tabiatini ifodalay olmayotganini aytib keldik. Kirill alifbosidan voz kechilishida ham ana shu omil birlamchi bo'lgan edi. Shu bois ustoz olimlarimiz kirill alifbosidan zo'rlab chiqarilgan [ng] tovushini o'zbek-lotin alifbosiga kiritgan edilar. Endi esa bu tovushni ifodalovchi harf bizga kerak bo'lmay qoldi. Qanday qilib, o'ta milliy xarakterdagi bu tovush ifodasiga alifboda joy bermaslik mumkin? Milliy an'analarda juda tez unutilayotgan zamonda [ng] tovushining grafik ifodasini chiqarib tashlash xato bo'ladi. Bu tovush ham, uning harfiy ifodasi ham o'zbekniki, o'zbek tilini, uni alifbodan chiqarish bilan nimanidir yo'qotishimiz tayin, biroq unga alifbodan joy berish bilan hech narsa yo'qotmaymiz, kamida tilimizning milliy tarhini, tarovatini saqlab qolamiz. Amaldagi alifbomizdan joy berib, millat ham, milliy til ham, ona tili ta'limi ham zarar ko'rmadi.

3. Loyihaga bildirilgan takliflarda tutuq belgisining ortiqchaligi, o'zbek tili tabiatiga yotligi eslatilmoqda. Yoki o'zbek tilida tutuq belgisi so'zlarning soni kam ekan. Hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan kam bo'lsa kamdir (aslida unday emas, chunki asos hoida sanoqli bo'lsa ham, nutqda bu so'zlar xilma-xil shakllarda keladi, so'zning haqiqiy hayoti ham ana shunday kontekstda kechadi), ammo o'zbek tili badiiyat tili ham ekanligini unutmashimiz lozim. Ona tili ta'limini bu belgisiz egallagan avlod mumtoz adabiyotni, ming yillik yozma an'analarni o'zlashtira oladimi?! Menimcha, yo'q. Nizomiddin Mahmudovning gaplarida shu ma'noda jon borki, tilning mukammalligi nafaqat sinonimlarga boyligi, balki yozma an'analarga sodiqligi bilan ham belgilanadi. Yozma an'analarga sodiqlik so'zning asosini tirik saqlashni, qanday ehsitsa, shunday yozib ketavermaslikni ta'minlaydi. So'z asosini tirik saqlash o'quvchi, til o'rganuvchi so'z ma'nosini oson anglashga yordam beradi, pirovardida ta'lim sifati va samaradorligiga xizmat qiladi buni, eng avvalo, ona tili o'qituvchilari yaxshi tushunsa kerak. Yozma an'analardan chekinish, chetga chiqish tilning taraqqiyot davrlararo farqlanishlarni kattalashtirib, uzoqlashtirib yuboradi.

4. *H* va *x* harflarini birlashtirib yuborish yuzasidan bildirilgan taklifga nisbatan ham yuqoridagi mulohazamizni aytamiz. Xo'sh, bugun *h* va *x* harflarini farqlashni istamaymiz, ammo ingliz-

cha "w", "y", "z" tovushlarini aytishning hadisini olishdan charchamaymiz. Yoki xitoy iyerogliflarining mag'zini chaqishga, bu tilni puxta egallashga bor kuchimizni safarbar etamiz. Ammo qadimdayoq tilimizga o'zlashgan harfga kelganda og'rinib qolamiz... Ertaga *k* va *q* tovushlarini ham birlashtirish harakatiga tushmaymizmi?!

Aytilganlardan murosul zinhor o'zinikini ma'qullash emas, alifbo faqat loyiha ijodkorlarining mulki ham emas. Alifboni yozuv quroli deb ham tushunmaylik. Alifbo bu tilning tirikligini ta'minlaydigan vosita, unga o'ta ehtiyojkorlik bilan yondashilishi zarur. Bizningcha, qonun loyihasi shunday tutumga tayanib tayyorlangan. Qonun loyihasining qabul qilinishi natijasida: 1) lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi qulay alifboga aylanadi; 2) ayrim harflarni kompyuterda yozayotganda paydo bo'ladigan murakkabliklar bartaraf bo'ladi; 3) ilmiy-ta'limiy jihatdan takomillashadi; 4) alifboning takomillashuvi mamlakatimizda lotin yozuviga to'liq o'tilishini ta'minlaydi.

Albatta, mazkur Qonun loyihasi muhokama uchun havola qilindi, bu borada bildirilgan fikrlar yig'iladi va o'rganiladi. Uning qabul qilinishida O'zbekiston Respublikasi Aylia vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi bilan kelishiladi.

Shuni ham unutmashlik lozimki, mazkur Qonun loyihasida normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki o'z kuchini yo'qotish haqida huquqiy normani kiritish nazarda tutilgan. Qonun loyihasining qabul qilinishi davlat byudjetidan qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi.

Tabiiyki, yurtdoshlarimizda "yana pasport alishtiramizmi?", "haydovchilik guvohnomasini o'zgartirish kerak ekan-da", kabi o'ylar ham bor. Fikrimcha, bu juda tashvishli emas, chunki pasport va boshqa hujjatlardagi alifbo o'zgarishiga aloqador holatlar birdaniga, inqilobiy yo'l bilan almashtirilmaydi. Masalan, pasport yoki haydovchilik guvohnomalari yoxud boshqa hujjatlarni muddati kelganda almashtirish bilan yechim topilaveradi.

Yorqin ODILOV,
O'zFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori
institutini bo'lim mudiri,
filologiya fanlari doktori,
professor

Sinab ko'ring

Mantiqiy masalalarni turli usullarda yechamiz

Matematik masalalarni ishlashda asosan arifmetik va algebraik usullardan foydalanish ijobiy samara beradi. Jamshid G'iyosiddin al-Koshiyning "Hisob ilmi kaliti" asaridan olingan quyidagi masalani ko'rib chiqaylik:

Masala: Oltin va durdan yasalgan bezakning og'irligi 3 misqol, bahosi 24 dinor, 1 misqol oltin 5 dinor, 1 misqol dur 15 dinor bo'lsa, bezakda necha misqol oltin va dur bor?

Yechish: a) *algebraik usul:* masalani tenglama tuzish orqali yechamiz, buning uchun dastlab belgilashni amalga oshiramiz. Dur miqdori = x desak (u holda dur narxi $15x$), umumiy og'irlik 3 misqol bo'lgani uchun oltin $(3-x)$ misqol (u holda oltinning narxi $5(3-x)$) bo'ladi. Endi masala shartiga mos algebraik ifoda tuzamiz:

$$15x + 5(3 - x) = 24$$

$$15x + 15 - 5x = 24$$

$$10x = 9$$

$X = 0.9$ (misqol) dur kelib chiqdi, demak, $3 - x = 2.1$ misqol oltin bor.

b) endi masalaning arifmetik usulda yechilishini ko'rib chiqamiz:

Bunga o'xshash masalalarni "faraz" usuli orqali yechish qulay va to'g'ri.

1. Faraz qilaylik, bezak faqat oltindan iborat bo'lsin, unda uning narxi $5 \cdot 3 = 15$ dinor bo'lardi.

2. Bu asl narxdan $24 - 15 = 9$ dinorga kam.

3. Oltinning narxi durning narxidan $15 - 5 = 10$ dinorga kam.

4. Farazimizdan hosil bo'lgan narx va asl narx farqini oltin va dur narxlarining farqiga bo'lamiz:

$9:10 = 0.9$ (misqol) durning massasi kelib chiqadi. Faraz usulida qaysi birini dastlab tanlab olgan bo'lsak (oltin), javobda ikkinchisi (dur) kelib chiqadi.

5. Endi oltinning og'irligini topamiz: $3 - 0.9 = 2.1$ misqol.

Javob: dur 0.9 misqol va oltin 2.1 misqol.

Quyida shu usul bilan ishlanadigan masalalar berilgan:

1. Fermerning qo'y va tovuqlari bor. Ularning umumiy boshlari soni 172 ta, oyoqlari esa 434 ta bo'lsa, fermerning nechta qo'yi va tovuqi bor?

2. 1 kilogramning bahosi 40.6 so'm va 6.6 so'm bo'lgan ikki xil moddadan kilogramning bahosi 27 so'm bo'lgan modda hosil qilish uchun har bir moddadan qancha olish kerak?

Shu bilan birgalikda maktab matematika darsligida quyidagicha masalalar ham berilgan:

Masala: Agar savdogar molining 1 kilogramini 16.5 so'mdan sotsa, 81.4 so'm zarar ko'radi. Agar 1 kg ni 19.8 so'mdan sotsa, 162.8 so'm foyda ko'radi. Savdogarda nechta kg mol bor?

Yechish: a) *algebraik usul:* Masala shartiga mos ifoda tuzamiz, agar savdogarning molini x kg desak, masala shartiga ko'ra uning tannarxini ikki xil ko'rinishda ifodalash mumkin:

$S = 16.5x + 81.4$ (so'm) va $S = 19.8x - 162.8$ (so'm), bu ikki tenglikdan quyidagi tenglamani hosil qilamiz va uni hal etamiz:

$$16.5x + 81.4 = 19.8x - 162.8$$

$$3.3x = 244.2$$

$$X = 74$$
 (kg) mol bor ekan.

b) *arifmetik usul:*

1) sotilayotgan narxlarning farqini topamiz: $19.8 - 16.5 = 3.3$

2) birinchi va ikkinchi tijoratdan ko'rilgan daromadning farqini topamiz: $162.8 - (-81.4) = 244.2$

3) umumiy summadagi farqni narxlar farqiga bo'lamiz: $244.2 : 3.3 = 74$ kg mol kelib chiqadi.

Javob: 74 kg mol bo'lgan.

Shu usulda yechiladigan ba'zi masalalar:

1. O'quvchilar futbol to'pi sotib olmoqchi bo'lishdi. Agar ular 140 so'mdan to'plashsa, 100 so'm yetmay qoladi, agar 160 so'mdan yig'ishsa, to'p narxidan 400 so'm ortib qoladi. Sinfda nechta o'quvchi bor va to'pning narxi qancha?

2. Agar mahalladagi har bir uy oldiga 6 tadan ko'chat o'tqazilsa, 70 ta ko'chat ortib qoladi, 9 tadan ko'chat o'tqazilsa, 50 tup ko'chat yetmay qoladi. Ko'chadagi uylar nechta va har bir uyga nechtdan ko'chat to'g'ri keladi?

3. Matematika to'garagi o'quvchilari har partaga 2 tadan o'tirsa, 9 ta parta ortib qoladi, agar ular partaga 1 tadan o'tirsa, 1 o'quvchiga parta yetmay qoladi. O'quvchilar sonini aniqlang.

O'quvchilarda izchil mantiqiy fikrlashni shakllantirib borishda mantiqiy masalalarning ahamiyati katta.

Qadimiy masala: Kulol 25 ta ko'zani bozorga olib borish uchun arava yolladi. Bozorga olib kelingan har bir butun ko'za uchun kulol aravakashga 1500 so'm beradi. Sindirib qo'yilgan har bir ko'za uchun aravakash kulolga 5000 so'm to'laydi. Yo'lda bir nechta ko'za sinib, kulol aravakashga 18000 so'm berdi. Nechta ko'za bozorga sinmay kelgan?

Yechish: a) *algebraik usul:* agar butun ko'zalarni x , singanlarini y desak, quyidagi tenglama sistemasiga ega bo'lamiz.

$$\begin{cases} x + y = 25 \\ 1500x - 5000y = 18000 \end{cases}$$

ni yechsak, $x = 22$ va $y = 3$ javoblarini olishimiz mumkin.

b) *arifmetik usul:*

1) agar hamma ko'za butun yetib borsa, jami: $25 \cdot 1500 = 37500$ so'm bo'lar edi.

2) aslida to'langan pul esa bu narxdan $37500 - 18000 = 19500$ so'm kam.

3) har bir singan ko'za aravakashga $5000 + 1500 = 6500$ so'mga tushgani uchun $19500:6500 = 3$ ta ekan, demak, butunlari $25 - 3 = 22$ ta.

Javob: 22 ta ko'za sinmay kelgan.

Quyidagi masalani ham shu usuldan foydalanib hal etish mumkin:

Masala: O'quvchi sinovdagi 30 ta savolga javob berishi kerak, har bir to'g'ri javob uchun 7 ball beriladi, har bir noto'g'ri javob uchun esa 12 ball ayiriladi. Agar o'quvchi jami 77 ball to'plagan bo'lsa, u nechta savolga to'g'ri javob topgan?

Darsda olingan bilimlar to'garak mashg'ulotlari bilan mustahkamlanib borilsa, samaradorlik yuqori bo'ladi. Masalalarni algebraik usulda yechishning eng muhim nuqtasi noma'lum sonni to'g'ri o'rinda kiritish hisoblanadi.

Masala: Berilgan beshta sonning har biri 3 ga ko'paytirilib, so'ngra hosil bo'lgan sonlarning har biriga 2 qo'shildi. Hosil bo'lgan sonlar yig'indisi 70 ga teng bo'lsa, berilgan sonlar yig'indisi nechga teng bo'ladi?

Yechish: Masaladagi beshta sonning har biriga alohida o'zgartirish kiritish shart emas, sababi bizga ularning yig'indisi kerak, xolos, yig'indi uchun yagona x deb o'zgartirish kerak. Har biri 3 ga ko'paytirilsa, u holda $3x$ hosil bo'ladi. Beshta 2 qo'shilsa, $3x + 5 \cdot 2$ hosil bo'ladi va quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz:



$$3x + 5 \cdot 2 = 70$$

$$3x = 60$$

$$X = 20$$

Javob: beshta sonning yig'indisi 20 ga teng.

Quyidagi masala ham shu yo'lda ishlanadi. Berilgan to'rtta sonning har biriga 3 ni qo'shib, so'ngra ularning har birini 2 ga ko'paytirib chiqqach, hosil bo'lgan sonlar yig'indisi 70 ga teng bo'ldi. Berilgan sonlar yig'indisini toping.

Yana bir masalaning yechimini ko'rib chiqsak:

Masala: (G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy masalasi) Bir kishining 30 kunlik ish haqi 10 dinor va bitta chakmon edi. U kishi 3 kun ishlab chakmonli bo'ldi. Chakmon necha dinor?

Yechish: a) *algebraik usul:* agar chakmonning narxini x dinor desak, ishchining umumiy oyligi

$$(10 + x) \text{ dinor bo'ladi. } \frac{10+x}{30} \text{ esa uning bir kunlik}$$

ish haqi, masala shartidan quyidagi tenglamani

$$\text{tuzamiz: } \left(\frac{10+x}{30}\right) \cdot 3 = x. \text{ Bu tenglamani yechib,}$$

chakmonning narxi (x) ni topamiz:

$$\left(\frac{10+x}{30}\right) \cdot 3 = x$$

$$10 + x = 10x$$

$$9x = 10$$

$$X = \frac{10}{9} \text{ (dinor) chakmon narxi ekan.}$$

b) *arifmetik usul:* savol berish usulidan foydalanib ishlaymiz:

1) 3 kunda bitta chakmon ishlasa, 30 kunda qancha chakmon ishlashi mumkin? $30 : 3 = 10$ ta

2) 10 dinor va bitta chakmon, jami 10 ta chakmon bilan narxi teng bo'lsa, 10 dinorga nechta chakmon to'g'ri keladi? $10 - 1 = 9$ ta

3) 9 ta chakmon 10 dinor bo'lsa, bitta chakmonning narxi qancha? $10 : 9 = 1, (1) \text{ dinor.}$

Javob: Bitta chakmon 1, (1) dinor.

Quyidagi masalani mustaqil ishlashga urinib ko'ring. Bir buyumning 10 tasi, 2-buyumning 15 tasi, 3-buyumning 30 tasi 1 dinor turadi. Bir dinor pulga bu buyumlarning har biridan bir xil miqdorda necha do-nadan olish mumkin?

$$(\text{ko'rsatma: } \frac{x}{10} + \frac{x}{15} + \frac{x}{30} = 1)$$

tenglamaga kelib oling)

Keltirilgan masalalar o'quvchining fikrlash doirasini kengaytirishda juda qo'l keladi, qolaversa, mantiqiy masalalarni arifmetik va algebraik usulda ishlash o'quvchidan xatshigina aqliy mehnat talab qiladi. Masalaning shartiga mos tenglama tuzish, noma'lum sonni tanlash va baholash har tomonlama o'quvchi qobiliyatini oshiradi.

Hafiza ELMURODOVA,
Oqdaryo tumanidagi
52-IDUMning matematika
fani o'qituvchisi

Terma jamoalarning mashg'ulotlari o'tkaziladigan basseyn ijara to'lovini kechiktirib, qarzga o'tkazish odatga aylanib qolgan.

Federatsiyaning muammolari

ko'plab chempionlarni yarim yo'lda "sindiryapti"

Oilamiz sportga doim o'zgacha munosabatda bo'lgan. Uch farzandim suv sporti shaydosi. Hamma muammo qizlarim sport bilan professional darajada shug'ullana boshlagach boshlandi. Bir narsani aniq aytishim mumkin, yurtimizda sportchi bo'lish qiyin.

2013-yilda to'rt sport turi — suzish, suv polosi, sinxron suzish va suvga sho'ng'ish bo'yicha yangi federatsiya tashkil etildi. Ammo hozirgacha ushbu yo'nalishning o'z sport bazasi yo'q. Bu esa shu yo'nalishlar bo'yicha shug'ullanayotgan sportchilarning o'sishiga to'sqinlik qiladi. Eng achinarlisi, har bir tur bo'yicha tibbiyot xodimlari — malakali shifokorlar, massaj terapevtlari, psixologlar yetarli emas.

Natijada bugungi kunda ko'plab sportchilar erishgan natijalar yo'qqa chiqyapti. Bu qachongacha davom etadi, hech kim bilmaydi. Murabbiylar tez-tez o'zgarib turadi, ammo rahbariyat o'zgarishsiz qolmoqda.

Mamlakatimizda 2021-yil "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" deb e'lon qilindi. Prezidentimiz sportni rivojlantirishga bag'ishlangan yig'ilishlarda bir necha bor sportchilarga sharoit yaratish haqida ta'kidlab o'tdi. Suzish yo'nalishi federatsiyaning boshqa sport yo'nalishlaridan oldinda bo'lishiga qaramay, u yerda ham muammolar talaygina. Suzish bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi, "Mard o'g'lon" davlat mukofoti sovrindori Vladislav Mustafaning uyi yo'qligi bunga misoldir. U Tokio olimpiadasida ishtirok etish litsenziyasini qo'lga kiritdi. Ammo Olimpiada oldidan federatsiya rahbariyati unga bergan va'dalari ustidan hamon chiqmagan. Asli Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi Vladislav Mustafaga Jizzax viloyati nomidan qatnashish taklifi kelib tushgach, uni Toshkent shahrida doimiy ro'yxatdan o'chirishgan. Bu voqea bir necha yil bo'ldi va sportchi hamon o'quv-mashg'ulotlar uchun bir mehmixonadan ikkinchisiga ko'chib o'tib yashamoqda. Butun dunyoda pandemiya tufayli joriy qilingan karantin davrida bu ayniqsa qiyin kechdi. Ammo na viloyat, na federatsiya va na O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi bu muammoni hal qilishga shoshilmayapti.

Har bir sportchi o'z mamlakatining nomini dunyoga tanitish uchun kurashadi. Vatanparvarligi va o'z ishiga bo'lgan muhabbat bilan katta mashaqqatlarni yengishga rozi bo'ladi. Xalqaro musobaqalarda qatnashish qanchalik qiyinligini uning o'zi va murabbiylari, ota-onasi biladi, xolos. Buni yaqinda o'tkazilgan suv sporti musobaqalari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Badiiy suzish bo'yicha musobaqalarda 64 nafar sportchi — Andijon, Buxoro, Samarqand, Farg'ona viloyati va Toshkent shahri jamoalari qatnashdi. Suv polosi bo'yicha yoshlar o'rtasidagi O'zbekiston chempionatida Samarqand, Namangan, Sirdaryo va Xorazm viloyati va Toshkent shahridan jamoalar ishtirok etdi. Bu musobaqada g'olib bo'lganlar oliy o'quv yurtlariga imtiyozli kirish imkoniyatini qo'lga kiritishlari mumkin edi. Yaqin-yaqingacha viloyatlardan kelgan ishtirokchilar ro'yxati kengroq edi.

Suv polosi musobaqasi Suv sporti saroyida, badiiy suzish bo'yicha chempionat esa Respublika olimpiya zaxiralari kolleji bazasida o'tkazilgan. Ushbu muassasalarning havzalari o'quv jarayoni uchun mo'ljallangan bo'lib, suzish yoki suv polo-

si musobaqalarini o'tkazish uchun ko'proq mos keladi. Ammo tomoshabinlar uchun o'rindiqlar ajratilmagan. Sport o'yinlari uchun tomoshabin muhimligini inkor etib bo'lmaydi. Sportchi startga chiqishdan oldin boshdan kechiradigan hissiy stress uning natijasiga qanday ta'sir qilishini hech kim bilmaydi. Bu vaziyatda oilasi va yaqinlarining ko'magi, olqishi unga katta yordam beradi.

Respublika olimpiya zaxiralari kolleji o'tkaziladigan musobaqada bolalarimni qo'llash, ular bilan birga ekanligimni bilishlari uchun borganimda men ham boshqa ota-onalar bilan birgalikda ba'zi tushunmovchiliklarga duch keldim. Negadir biz kirishimiz kerak bo'lgan eshik yopiq, nazorat punktida poyabzal qoplamlarini (baxilla) sotib olgandan so'ng, kiyim almashtirish xonasi va sportchilarning yuvinish xonalari orqali kirishimiz mumkinligi aytiladi. Ichkariga kirganimizda tushundik, bu yerda tomoshabinlar uchun sharoit yo'q (joylar kam, ishtirokchilar, jamoalar ko'p). Shunday katta miqyosdagi chempionat tashkilotchilari karantin qoidalarini ham e'tibordan chetda qoldirmagan holda barcha choralarini oldindan ko'rib qo'yishlari kerak emasmi?!

Shu o'rinda savol tug'iladi: tashkiliy ishlar uchun ajratilgan mablag' qayerga ketmoqda? Ajablantirishi, terma jamoalarning mashg'ulotlari o'tkaziladigan basseyn ijara to'lovini kechiktirib, qarzga o'tkazish odatga aylanib qolgan.

Davlatimiz rahbari shu yil Xalqaro xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tanatali marosimdagi nutqida shunday dedi: "Bugun biz o'z oldimizga barcha sohalarida yuqori maqsadlarni qo'yamiz va keng ko'lamli dastur va loyihalarni amalga oshirmoqdami?". Ammo bu na O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligiga, na suv sportlari federatsiyasiga va hatto O'zbekiston Milliy olimpiya q'omitasiga tegishli emasdek. Keng ko'lamli musobaqalarning birinchi kunidanoq murabbiy va sportchilar hovuzda sovuq suv va elektr energiyasi yo'qligi kabi muammolarga duch kelishgan.

Har bir sportchi uchun rag'bat katta motivatsiya. Taqdirlash marosimi esa ular hayotidagi unutilmas daqiqalardir. Ushbu jarayonlar sportchini yangi marralarga yetaklaydi. Lekin yuqorida tilga olganimiz chempionatda sovg'alarni topshirish marosimi barcha kutganidan "oshib tushdi". Jismoniy tarbiya va sport vazirligining 2021-yil 15-martdagi 417-buyrug'iga binoan badiiy suzish bo'yicha chempionatda barcha jamoalarning ishtiroki uchun sharoit yaratish, uning o'tkazishiga javobgarlik ishlari Suv turlari bo'yicha respublika oliy sport mahorati maktabiga yuklatilgan edi. Mukofotlash jarayoni esa Suv sporti federatsiyasi rahbarligi zimmasiga qo'yilgan. Ammo tashkilotchilari diplomlarning nusxasini topshirish bilan chegaralandilar.

Bu holat farzandlari endigina professional sportga qadam qo'ygan ota-onalarning g'azabini qo'zg'adi, biz kabi ko'pdan buyon shu sohaning ichida yurgan ota-onalarda esa salbiy his-tuyg'ularni kuchaytiradi. Musobaqaga hatto tibbiyot xodimlari jalb etilmasa, buni qanday tushunish mum-

kin? Toshkent shahrida o'tkazilgan suv sporti turlari bo'yicha chempionatda ham birgina Suv sporti bo'yicha maxsus bolalar va o'smirlar sport maktabidan shifokor olib kelindi, u ham bo'lsa, o'zining maktabi murabbiyi va ishtirokchilariga xizmat ko'rsatdi. Qolganlar-chi? Nega musobaqa tashkilotchilari tez yordam va shifokorlar tibbiy xizmatini yo'lga qo'ymadi?

Ushbu musobaqadan biroz oldin badiiy suzish jamoasi a'zolari o'quv-mashg'ulotlarida ovqatdan zaharlanishdi, lekin federatsiya bu hodisaga e'tibor bermadi. Shu vaziyatda tibbiy xizmat yo'lga qo'yilganida, balki o'z vaqtida birinchi yordam ko'rsatilgan bo'lardi va muammo kasalxonagacha yetib bormasdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng joriy etish va omma viy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari faoliyatini baholash maqsadida reyting tizimini joriy etish vazifasi belgilandi. Qiziq, federatsiya ushbu reytingda qaysi o'rinni egallarkan?

Qizlarim professional faoliyati davomida ko'p jarohatlar olishgan: miya chayqalishi va suyaklar sinishi, tizza va yelka bo'g'imlarida muammolar. Afsuski, tibbiy sohada ham kasallikni faqatgina davolash emas, maxsus tekshiruvlardan o'tkazish, aniq tashxis va samarali davolashni amalga oshira oladigan professional sport shifokorlari yo'q. Boshqa sport turlari haqida bir nima deyish qiyin, lekin suv sporti bilan shug'ullanadigan farzandlarning ota-onalari o'zlari shifokor izlashlari va bolalarining davolanishini moliyalashtirishlari kerak bo'ladi. Ammo suv sporti bilan jajji qizlar, ayollar shug'ullanadi. Ular kelgusida ona, uy bekasi bo'lishini hisobga olsak, qanchalik sifati tibbiy xizmatga muhtoj ekanligimni yanada chuqur his qilamiz. Bu muammolarni bittagina federatsiya misolida keltirdim, xolos. Endi boshqa sport jabhalari tasavvur qilavering.

Har bir sportchi xalqaro hakamlarning faoliyatiga havas bilan qaraydi. Ularga ergashib o'zining professional mahoratini yanada oshirish, o'z ustida ishlashga urinadi. Sport olamiga farzandlarim ortidan kirib borganimdan beri murabbiylar jamoalarning o'quv-mashg'ulot yig'inlariga va hattoki xalqaro turnirlarga borishlari uchun kerakli mablag'ni qanday qiyinchilik bilan topayotganlarini kuzatdim. Bunday holatlarga guvoh bo'lish qancha asab, energiya va sog'liqni "o'g'iraydi"! Bu vazirlik va federatsiyada sportchilarning nima uchun qo'shma xalqaro o'quv mashg'ulotlari yoki musobaqalarda qatnashishi kerakligini tushunmaydigan yoki tushunishni istamaydigan odamlar o'tirganligini ko'rsatadi. Rahbariyat sportchilar bir-biri bilan raqobatlashib, ham motivatsiya, ham dasturlarni bajarishda yuqori mahorat, professionalizmga ega bo'ladi degan fikrda. Xo'sh, to'liq bo'lmagan mutaxassislar tarkibi, zaxiradagi ishtirokchilarning ismlari o'chirilsa, unda ular uchun ajratilgan mablag' qayerga sarflanyapti? Men badiiy suzish yo'nalishi misolida aytishim mumkin, katta murabbiy Elvira Fayzullayeva qancha urinmasin, zaxiradagi sportchini Olimpiya dueti ro'yxatidan chiqarib, delegatsiyaning tarkibini qisqartirishdan boshqa chorasi qolmaganini ko'rdim. Qizim Anastasiya Morozova yelkasidagi kuchli

og'riqqa qaramasdan o'quv-mashg'ulotlarida qatnashdi. Bundan keyingi natija nima bo'ldi deb qiziqdimgizmi? Yelka bo'g'imida jarrohlik amaliyoti bilan uning sportdagi faoliyati yakuniga yetdi.

Hozir oilamizdan sportda uzoq vaqt tiklanishdan so'ng faqat Anastasiya qoldi. Badiiy suzish jamoasining a'zosi, ilk marotaba ushbu sport turi bo'yicha xalqaro sport ustasi sifatida O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasi u uchun xususiy klinikada operatsiya o'tkazish uchun mablag' ajratdi, chunki davlat shifoxonalari buni amalga oshirishning imkoniyati yo'q edi. Biz buni taxminan ikki oy kutdik. Avvallari, agar amaliyot o'tkazilsa, bu faqat ota-onalarning hisobidan amalga oshirilardi. Agar bu holat oldinroq bo'lganida edi, biz katta miqdordagi mablag' sarflangan Olimpiya o'yinlari juftligini yo'qotmagan bo'lar edik. Milliy olimpiya qo'mitasi raisi Rustam Shaabdurahmonovdan minnatdormiz. Ammo murabbiylar Elvira Fayzullayeva va Ok-sana Botnikova ozmuncha mehnat sarflamadilar va buning uchun ular bir qancha qiyinchiliklarga dosh berishlariga to'g'ri keldi!

Sportchilarning sog'lig'iga hech qanday e'tibor berilmayapti deb aytish ham noto'g'ri bo'ladi. Yiliga ikki marta tibbiy ko'rik o'tkaziladi va sportchilarga dori-darmonlar ajratiladi. Ammo achinarlisi shundaki, terma jamoalar tez-tez xalqaro musobaqalarga faqat murabbiylar hamrohligida borishadi, ular tarbiyalanuvchilarning sog'lig'iga jarayon emas, balki faqat mashg'ulotlar uchun uchun javobgar bo'lishadi. Faqatgina Tokioda bo'lib o'tadigan Olimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish payti delegatsiyamizga shifokor va massaj terapevti hamrohligida ketish nasib etdi.

Shuningdek, viloyat murabbiylarining mahorati juda past. So'nggi yillarda viloyat sportchilarining xalqaro musobaqalarda qatnashishi kamdan-kam uchramoqda. Viloyatlarda poytaxtlik murabbiylar ishtirokida mahorat darslari va seminarlar tashkil etilishini kutayotganlar qanchadan-qancha.

Har bir sportda turli toifadagi FINA hakamlari bor, lekin qandaydir sabablarga ko'ra ularning hammasi ham seminar mashg'ulotlari o'tkazmaydi. Ular raqobatlashishni xohlamaydilar. Xo'sh, mamlakat imiji haqida kim o'ylaydi? Axir, davlat ularning Xalqaro suzish federatsiyasiga kirish istagining qo'llab-quvvatlashi, demak, Vatan oldidagi vazifasini bajarish va professional hakamlar yetishtirish va tarbiyalash vaqti kelmadimi?!

Viloyatlik murabbiylar o'z tarbiyalanuvchilari haqida qayg'urishi tabiiy. Ular sportchining oliy o'quv yurtiga imtiyozni qo'lga kiritma olmasligidan qo'rqishadi, respublika miqyosidagi musobaqalar uchun jon kuydirishadi, xalqaro musobaqalar haqida faqat orzu qilishadi, xolos.

Ko'pchilik ota-onalar kabi men ham hakamlik qilayotgan murabbiylarning adolatsizliklariga, ya'ni ba'zi murabbiylarning o'z sportchilarining kamchiliklariga ko'z yumib, ortiqcha ball bilan siylab yuborishlari, boshqalarning mehnatini sezilarli darajada qoniqarsiz deb topgan holatlarga guvoh bo'lganman. Bunday holatlardan so'ng nima uchun yosh sportchi respublika musobaqalarida 8,6 va undan yuqori ball olgani-yu, ammo mamlakatimizning eng kuchli sinxron suzuvchilari FINA Jahon kubogida 8 balidan yuqori ololmasligiga ajablanmasak ham bo'ladi.

Natalya MOROZOVA

Xotira



O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi, pedagogika fanlari doktori, professor Jo'ra Yo'ldoshev nomi xalq ta'limi tizimida oddiy o'qituvchilikdan vazir lavozimigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tgan betakror shaxs, shu bilan birga sohaning zukko olimi sifatida O'zbekiston ta'limi tarixiga muhurlandi.

Onasi – Komilaxon aya ziyoli oilada tarbiya topgan edi. U o'g'liga ota-bobosidan qolgan arab alifbosidagi "Yoritosh" va "Onaizor" kitoblarni o'qib berardi. Ota-bobolari ma'rifatli kishilar bo'lgani uchun sobiq sovet organi xodimlari topib, ularning xonadonida tintuvlar o'tkazib, barcha kitoblarni olib ketgan va "zararsiz" deya nomi tilga olingan ikkita asarnigina qoldirishgandi. Bu kitoblarda mehr-oqibat bosh mezon edi. Aya bolaning talabi bilan ularni takror-takror o'qib, izohlab berar ekan, ana shu xislatlar urug'larini jajigina Jo'ra qalbiga qadab ulgurgan edi. U shu taxlit mehrlil insonlarga talpinib, ularga o'xshashga harakat qilib ulg'aydi.

Qibray tumani Salar qishlog'idagi maktabda o'qiganida ham o'qituvchilarida beqiyos mehnri ko'rdi. O'zi ham ular kabi bolalarga mehr ulashgisi keldi. Qat'iy qaror qabul qildi. Biroq talabchan otaning ham tarbiyasini olgan, eng muhimi, mehr-oqibatni muqaddas bilgan farzand padarining orzusiga qarshi borarmidi? Otasining niyati esa uni agronomlikka o'qitish edi. Rostan ham padari buzrukvorlari G'ani aka bu kasbga qalбини bergan va jamoatchilik hurmatini qozongan inson edi. Ikkinchi jahon urushi kechayotgan qahraton qishda askarlar uchun xalqimiz o'zi yetishtirib, to'plagan mevalar-u boshqa oziq-ovqatlar ortigan bir eshelonni eltganlar orasida G'ani akaning ham bo'lganligi fikrimizga dalil. Farosati farzand bunday nozik paytlarda ham munosib yo'lni topdi. Toshkent davlat pedagogika institutining kimya-biologiya va qishloq xo'jaligi asoslari ixtisosligi yo'nalishiga hujjat topshirdi.

Jo'ra Yo'ldoshev 1963-yili institutni tamomlab, Qibray tumanidagi 50-maktabda o'qituvchilik faoliyatini boshladi. Keyin harbiy xizmatni tugatib, uyiga qaytganida do'sti Akobir Toshkent shahridagi 20-maktabda o'rin bo'shaganligini aytib qoldi. Mazkur maktab ilg'or ta'lim muassasalaridan biri bo'lgani uchun yosh o'qituvchini, obdon surishtirib, bilimiga ishonch hosil qilishgach, ishga qabul qilishdi.

Jo'ra akaning ko'pchilik nazariga tushishi ham ana shu 20-maktabda yuz berdi. Ta'lim muassasasiga televideniye xodimlari – jurnalist-u muharrirlar kelib, teledarslar uyushtira boshlaydilar. Uning o'ziga xos jihati shunda ediki, dars jara-yoni to'g'ridan-to'g'ri efriga uzatilardi. Bunday paytda, albatta, muallim sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgachgina efriga qo'yiladi.

– Teledarslarni butun O'zbekiston muallimlari kuzata boshlagach, "faqat darslik bilan chegaralanib qolsam, darsga

Har bir maktab direktori ish stolida, maktab kutubxonasida "Ma'rifat" va boshqa ta'lim nashrlari taxlamlari turishini, jamoada muntazam gazetxonlik o'tkazilishini, har bir muallim o'z ustida tinimsiz izlanishi zarurligini uchrashuv va yig'ilishlarda bot-bot takrorlar edi.

Qalbidaryo vazir, mehridaryo muallim edi

bo'lib, ko'pvaraqli umumiy daftarlar to'ldirilgan yuzlab konspektlarni ko'rganmiz. Jo'ra aka ulardan pedagogik va ilmiy faoliyatida hanuzgacha foydalanayotganligini ta'kidlagandi.

Keyinchalik uning tirishqoqligi, o'z kasbiga mehnri ko'rib, malaka oshirish institutining, vazirlikning mas'ul lavozimlariga ishga taklif qilishdi.

Boshqaruvning har qanday nazariy xulosalari ko'p yillik tajribalar natijasida shakllanadi, undan so'ng hayotga tatbiq etiladi. Bu, ayniqsa, pedagogikada muhimdir. Ta'lim muassasasi rahbari tomonidan chiqarilgan noto'g'ri qaror nafaqat jamoa o'rntasidagi muhitni buzadi, balki eng asosiy maqsad, biz uchun hayot-mamot masalasi hisoblangan yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, va alaloqibat, davlat hamda jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladi. Shu bois ta'lim muassasasi rahbarining o'rni, uning asosiy vazifalari, mas'uliyati haqida doimo qayg'urib, mehnat qilgan, ilmiy izlanishlar olib borgan, hayotiy xulosalarga kelgan fidoiy pedagoglar tajribalarini o'rganish ham bugungi maktab direktorlari uchun foydadan xoli emas. Ta'lim tizimida boshqaruv xodimlarining aksariyat maktab direktorlaridir. Shu bois Jo'ra aka ular bilan doimiy ishlashni yo'lga qo'ydi, xulosa ham chiqardi. Umrining oxirigacha shu fikrda qoldi: "Direktor – maktab ko'zgusi".

"Maktabni boshqarish shartmi?" degan savol ko'pdan buyon mavjud va u doimo bahsga sabab bo'lib kelgan. Biroq, J.Yo'ldoshevning qat'iy fikri mavjud – "Hatto, Sh.A. Amonashvili kabi ta'lim darg'alari ham boshqaruv tushunchasi maktabga xos narsa emas, deb hisoblaydilar. Javob ikki xil bo'lishi mumkin emas. Boshqaruv maktab uchun kerak va zarur! Faqat bizga ma'muriy buyruqbozlik, "yuqoridan turib boshqarish" emas, maktab ichki boshqaruvini – uning butun tashkiliy-pedagogik faoliyatini me'yoriy boshqarish bilan mutlaqo yangi, ko'p qirrali, xilma-xil faoliyatli, quvonch va shodlik keltiruvchi, yangi yutuqlarga ilhomlantiruvchi, ijodiy jamoa mehnatiga asoslangan, sog'lom maktab o'rntasida ketayotgan murosasiz kurashni tez ilg'aydigan, taraqqiyotni tan oladigan, ijodiylik va tashabbuskorlikka qanot baxsh etuvchi, adolat va haqiqatni ro'yoybga chiqaradigan boshqaruv kerak", deb yozadi u o'zining "Ta'lim menejmenti" asarida.

Albatta, bunday fikrga kelish uchun J.Yo'ldoshevning turli rahbarlik lavozimlarga ishlash, muammo hamda uning yechimlarini, yutuqlarini amalda ko'rgan hamda o'z tadqiqotlari aprobatitsiyasini o'tkazish chog'i to'plagan tajriba va undan olgan xulosalari sabab bo'lgan. U Xalq ta'limi vaziri lavozimida faoliyat ko'rsatgan chog'larini ham maktab direktorlari bilan alohida ishlash, malaka oshirish institutida doimiy ma'ruzalarni ham asosan maktab rahbarlariga bag'ish-

lar, ularni yangicha ishlashga safarbar etardi.

– Maktab o'ta murakkab, zargar mehnatining mahsuli kabi nozik va noyob tizimdir. U boshqaruvsiz yashab, rivojlana olmaydi. Lekin boshqaruv... turli islohotlarga tez moslashuvdek yangicha mazmun va tushunchalar asosiga qurilmog'i lozim. Boshqaruv bilimdonlik, omilkorlik, ijodkorlik, talabchanlik, ayni paytda mehribonlik va izchilik bilan olib borilmog'i zarur... Shu bilan birga boshqaruv ishi shubhali tavakkalchilikka emas, ilmiy-uslubiy asoslangan faoliyatga tayanib, yetti o'lchab bir kesilgan, jiddiy sinovdan o'tkazilgan hayotiy xulosalar asosiga qurilishi zarur, aks holda ta'lim-tarbiyadek o'ta nozik jarayondagi o'zboshimchalik jamiyat uchun qimmatga tushishish mumkin, – deydi olim.

Uning maktab rahbarlari borasidagi doim ogoqlikka chorlab turuvchi savollari bugun ham o'rindir.

"...O'g'il-qizlarimizning tarbiyasini ta'minlashdagi eng muhim bo'g'in – maktablarga kimlar rahbarlik qilmoqda? Ular buyuk iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni ketayotgan shiddatli va jo'shqin sharoitda o'z vazifalari, burchlari hamda mas'uliyatlarini to'g'ri anglaydirlarmi? Ularda hozirgi zamon ta'lim muassasasi-ga rahbarlik qila olish darajasida nazariy, uslubiy, tashkiliy bilim va qobiliyat yetarlimi? Ijodiy, izlanuvchan, tashabbuskor pedagogik jamoani shakllantirishni udalalay oladirlarmi? Ularda vijdon amri bilan ish tutish, insonparvarlik, fidokorlik, halollik, adolatlilik kabi asl insoniy xislatlar shakllanganmi? Shu va shunga o'xshash ko'plab savollar meni o'ylantiradi".

Olimlik – tinimsiz tahsil natijasidagi izlanishlar, chuqur tahlil, qiyoslash va fikrlash jarayonidagi mashaqqatli aqliy mehnat. Olimlik – jamiyat oldidagi mas'uliyat.

Olim J.Yo'ldoshevning ilmiy tadqiqotlari pedagoglar malakasini oshirish orqali maktabdagi yoshlar – kelajak avlod tarbiyasini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan.

U o'ttizdan ziyod monografiya, qo'llanma, ilmiy metodik risolalar, yuzlab maqolalar muallifidir.

Pedagogika fanlari doktori, professor Jo'ra Yo'ldoshev ilmda ham ko'plab shogirdlarga rahbarlik qildi, ularga yo'l ko'rsatdi, maslahatlarini, yordamini aymadi.

Xalqaro miqyosda ham J.Yo'ldoshev o'zining munosib o'miga ega bo'lib, u Rossiya Pedagogika va ijtimoiy fanlar akademiyasi, AQSH Xalqaro fan va ta'lim akademiyasining haqiqiy a'zosi edi.

Umr yo'ldoshi, hamfikri, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi" unvoni sohibi Nazira aya ham pedagog edi. U Qibray tumanidagi 25-maktabda 30 yil kimyo fanidan o'quvchilarga saboq berdi. Ular farzandlari qiziqishlar-

ini qo'llab-quvvatladilar. Qizi Flora pedagogikani, ikkinchi qizi Nigora tibbiyotni, Gulchehra maktabgacha ta'lim yo'nalishini, o'g'li Zafarjon esa farmatsevtika sohasini tanlagan.

Bobolardan qolgan ma'naviy meroslar orasida xalqdan chiqqan o'tkir zehnlilik, bilim olishga ishtiyoqmand, bir so'z bilan aytganda, iqtidorli bolalarning boshini silab, ilm berish, e'tibor ko'rsatish qadriyati bor. Savobtalablar maktab-madrasalarda o'qiyotgan, oilaviy ahvoli og'ri bo'lgan tolibi ilmlarga yordam berib turishgan. Negaki, talaba yaxshi bilim olsa, oqibat xalqqa, va albatta, davlatga naf keltirishini ular juda yaxshi bilishgan. Behbudiy, Munavvar qori singari ma'rifatparvar bobolar ochgan maktablar, ular ko'magida o'qish uchun chet ellarga yuborilgan talabalar fikrimizga dalildir.

Millat taraqqiyosi yo'lida kuyib-pishib xizmat qiladigan bunday ziyoli saxovat-peshalar qatoriga J.Yo'ldoshevni ham qo'ysak adolatdan bo'ladi. Masalan, iqtidorli bolalarni topish, maxsus dasturlar asosida ular bilan ishlash Jo'ra Yo'ldoshevning sevimli mashg'uloti edi.

Bu haqda pedagogika fanlari nomzodi Akram Akmalov shunday hikoya qiladi:

"1998-yil oxirlarida Namangan viloyati maktablarida seminarlar tashkil etilgandi. O'shanda bir maktabda bo'lib o'tgan tadbirida men ham ishtirokchilar qatorida edim. Respublika miqyosidagi bunday anjumanga, tabiiyki, turli lavozimdagi rahbarlar, tegishli mutaxassislar tashrif buyurishgandi. O'sha paytda Xalq ta'limi vaziri lavozimida faoliyat ko'rsatgan Jo'ra G'aniyevich maktab faoliyati bilan tanishayotib, daftar ushlab turgan bir guruh o'quvchilarning bergan salomiga alik olarkan:

– Nechanchi sinfda o'qiyisiz, bolajonlar? – deya iliq muomala bilan so'radi. O'quvchilar shu maktabning ikkinchi, uchinchi sinfida o'qishlarini bildirishdi. She'r bilasizlarmi, degan savoliga biri 98 ta, ikkinchisi 145 ta, uchinchisi 277 ta she'rmi yoddan o'qib bera olishini aytishdi.

– Qani, yodlagan she'raringizdan aytib beringlari-chi?

Mehmonning rag'batlantiruvchi so'zlari o'quvchilarning g'ayratini yanada jo'shtirib, u bilan erkin suhbatga kirishdilar. Ular she'r nomlari yozilgan varaqalarni uzatib, xohlaganini so'rasa, aytib bera olishlarini ma'lum qilishdi. Buni amalda bajargan o'quvchilarga qarab mehmon:

– Barakalla, ota-onangizga rahmat. Kitob o'qishni yaxshi ko'rasizlarmi,

Maqola muallifi bir necha vazir bilan ishlaganligi bois, o'zaro qiyoslash imkoniyatiga ega. Ularning har birida o'ziga xos iqtidor-u layoqat bo'lganligini ta'kidlagan holda pedagog rahbar sifatida Jo'ra aka singari bolajon va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlaydigan vazirni ko'rmadim desam adolat buzilmaydi!

unday bo'lsa, o'zim ham sizlarga kitob sovg'a qilaman, – deya ularga va'da bergani va so'zining ustidan chiqqaniga shohid bo'lganman".

Darhaqiqat, Jo'ra aka O'zbekiston bo'ylab xizmat safarlarida, ayniqsa, ta'lim muassasalarida bo'lganida bolalar bilan qisqa suhbatda iqtidorlilarini tez ajratib olar, ularning o'qituvchilari bilan suhbatlashar, hatto, ota-onalarini maslahatga chorlar, vazirlik qoshida tashkil etilgan Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyiga o'qishga taklif etardi. Litsey o'sha vaqtlarda g'oyat dong taratgan edi. Jo'ra G'aniyevich litseyning nafaqat bunyodkori, balki ana shunday muhit ijodkori sifatida o'qituvchilar-u o'quvchilarning mehnri qozongandi. Ana shunday mehnri ko'rganlardan biri shoir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Shuhrat" medali sovrindori Shuhrat Oripov fikriga e'tibor beramiz:

– Ustozdagi olijanoblikni, yoshlarga nisbatan g'amxo'rliklarini litseyda o'qib yurgan kezarim juda ko'p marotaba o'zim ham kuzatganman. Ular o'zlari topgan iste'dodli yoshlarning yutuqlaridan doim boshlari osmonga yetardi, xuddi o'zlari erishgandek ich-ichdan yayrardilar. Sinfimizga kirib, biror fandan saboq bermagan bo'lsalar-da, men Jo'ra Yo'ldoshevni o'zimga haqiqiy ustoz deb bilaman. U kishi shoir emas-u, lekin adabiyotimiz, she'riyatimiz uchun qancha-qancha iste'dodli shoirlarni kashf etib bergan. U kishi rassom emas-u, lekin qanchadan-qancha rassomlarning iqtidorini yoshligidan aniqlab, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatgan, rag'bat bergan. Men ustoz kashf etgan, respublikamizning turli shahar-qishloqlarida tug'ilgan juda ko'p yoshlarni taniyman. Ular bugun turli sohalarda yetuk kadrlar bo'lib yetishib, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun astoydil xizmat qilishmoqda.

Darhaqiqat, Jo'ra aka juda ko'p yosh iqtidorlarga qanot bo'lgan, ularning hayotida buriilish yasagan. Umuman, Jo'ra akaning ijodkorlarga mehnri o'zgacha edi. Uning tashabbusi bilan har yili may oyida bir viloyatda ijodkor muallimlarning anjumanlari tashkil etilardi. Unda adabiyotning har xil janrida ijod qiluvchi muallimlarning asarlari yig'ilar, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida eng yaxshilari saralanib, mualliflar yurtimizning bahavo bir go'shasiga taklif etilardi.

Bu anjuman va uning tashkilotchisi haqida o'zbekning betakror shoiri Ikrom Otamurod shunday xotirlaydi:

– Jo'ra Yo'ldoshev – muallimlarning muallimi edi. U kishi maktabni adabi-



yo'tga, adabiyotni maktabga alohida e'tibor bilan, ehtirom va xayrixohlik bilan qadrdon etgan muallim. Vazir bo'lgan mahallarlarda "Ijodkor o'qituvchilar kengashi"ni tashkil etgan edilar. Shu asnoda adabiyot o'qituvchilarining har yili har bir viloyatda respublika anjumani o'tkazilar edi. Anjumanda qatnashgan o'qituvchilar, avvalo, jug'rofiy muhitdan, muhimi, qalbiy qadrdonlikdan ruhlanardilar. Katta-katta ham tasavvurlar, ham taassurotlar bilan qaytardilar o'z maktablariga. Eng muhimi, muallimlarning muallimi Jo'ra Yo'ldoshev o'zlari ushbu anjumanlarda doim birga bo'lardilar. O'qituvchilarning har bir yozuvini eshitib, dillari ravshan tortardi. Buni mazkur safarlar asnosida ko'proq egzu ishlash qilishga shoshiladi. Jo'ra aka ana shunday QALBIDARYO RAHBAR edi!

Shunday kishilar bo'ladi, qanday lavozim-u martabalariga erishmasin samimiylkidan, odamiylkidan, odmiplikdan voz kechmaydi. Axir u lavozim vaqtincha ekanligini va bu muddatdagi faoliyati albatta el tomonidan baholanishini yaxshi biladi. Shu bois imkoni boricha ko'proq egzu ishlash qilishga shoshiladi. Jo'ra aka ana shunday QALBIDARYO RAHBAR edi!

Shunday muallimlar bo'ladi, ular qanday davralarda bo'lmasin o'zining o'qituvchi ekanligini, doim boshqalarga o'mak bo'lishi kerakligini unutmaydi, va eng asosiy, shunga munosib amallardan chekinmaydi. Jo'ra aka ana shunday ZI-YOLI INSON edi!

Shunday olimlar bo'ladi, ular faqat davlat va jamiyatga naf keltiradigan tadqiqotlarnigina amalga oshiradilar. Jo'ra aka ana shunday HAQIQIY OLIM edi!

Chin Ustozlar shunday insonlarki, ular shogirdlarga yo'l-yo'riq ko'rsatadilar, qo'llab-quvvatlaydilar, vaqti kelsa hamdard bo'ladi, mehr ko'rsatadilar va, eng asosiy, o'zlarining ana shunday harakatlari hayotning kundalik qoidasi sifatida bilib, qilgan yaxshiliklarini unutib ham yuboradilar. Lekin ularning bu xislatlarini mehr ko'rgan shogirdlar qalblarining to'rida ardoqlab asraydilar, davralarda alqab yuradilarki, bunday ustozlar haqida xalq orasida afsonalar to'qiladi. Jo'ra aka ana shunday MEHRIDARYO MUALLIM edi!

Oxirati obod bo'lsin ulug' Ustozning!

Halim SAYID, "Mehnat shuhrati" ordeni sovrindori

Ta'kid

Yozuv islohi to'kis bo'lsin

Alifbomizni isloh qilish bugunning eng dolzarb va zaruriy masalalaridan biri. Tilshunoslarimiz tomonidan amaldagi alifbomizga ikkita diagraf – *sh*, *ch* shakllarini *ʃ* va *ç* ko'rinishiga keltirish bilan to'laqonli isloh amalga oshmaydi. Oldinda o'zbek grafikasida qilinishi kerak bo'lgan jiddiy o'zgartirishlar yetarlicha.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Yer yuzining 30 foizidan ortiq xalqlari lotin grafikasiga asoslangan yozuvga ega. Ammo lotin yozuvi bu xalqlar tilidagi barcha tovushlarini to'liq aks ettira olmasligi tabiiy. Shu jihatdan o'zbek tilidagi bir necha unli va undosh tovushlar ham bundan mustasno emas.

Shuni unutmash kerakki, lotin yozuvining o'zligi bo'lgan lotin tilida *sh* – (ʃ), *ch* – (tʃ), *g'* – (ɣ, ɣ), *ng* – (ŋ), *sirg'* aluvchi *j* – (ʒ - jurnal) va portlovchi *j* – (dʒ - jo'ja), *o'* – (ə) tovushlari bo'lmagan.

Buni o'ziga qabul qilgan xalqlar, yozuvda o'z tovushlarini aks ettirish uchun o'sha tovushni lotin yozuvidagi yaqinroq bo'lgan harfning osti, usti yoki atrofiga turli diakritik belgilar qo'yib (â, z, ä, ð) yoki turdosh tovushni hosil qilish uchun ikki va undan ortiq harflarni birlashtirib yasash qoidalaridan foydalanishgan. Bunda asosan, ikki harfli diagraf (*sh*, *ch*, *kh*, *ng*), uch harfli triagraf (*sch*, *dzh*, *eau*) va tetragraf (*tsch*)lar qo'llangan va hozirgacha foydalanilmoqda. [1] (Usmonov M.U. Yana imlo xususida: diagraflarni yoki diakritik belgi?)

Ma'lumki, diakritik belgilar harflardan ko'proq lotin yozuvinin nisbatan kechroq qabul qilgan, shuningdek, Shimoliy va ba'zi Sharqiy Yevropa hamda bir qancha Osiyo tillari, jumladan, turk, ozarboyjon tillarida foydalaniladi. To'g'ri, bugungi alifbomizda ham diakritik belgilar harflar mavjud. Bular *O'o'*, *Qq*, *G'g'* harflari bo'lib, o'zimizdagi yozuv imkoniyatlardan kelib chiqqan holda qabul qilingan.

Bugun o'zbek grafikasida "26 ta harf va 3 ta harfiy birlikma mavjud", degan "aksioma" ortida o'ta jiddiy noaniqliklar mavjuddir, uni bartaraf etmay turib, ta'limdagi savodxonlik madaniyatiga erishib bo'lmaydi. Keling, ularning ayrimlarini izohlashga urinib ko'raylik.

Har bir tilning yozuvi uning o'ziga favqulodda mos va muvofiq bo'lishi, shundagina yozuv tilning tabiiy va tarixiy taraqqiyotiga xalal bermasligi, tilning tugal tozaligi-yu, oydin ohangdorligiga putur yetkazmasligi ko'p ta'kidlangan haqiqatlardan.

Prezidentimizning 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-fevraldagi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to'liq o'tishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tomonidan O'zbekiston Respublikasi-

ning "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonuni loyihasi ishlab chiqildi.

Ko'zlangan alifbo islohotining bugungi kunda qizg'in muhokamalarga sabab bo'layotgani ham masalaning o'ta jiddiy hamda mas'uliyatli ekanini anglatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda, matbuot sahifalarida keng jamoatchilik tomonidan bildirilayotgan mulohazalarni kuzatar ekanmiz, fikrimizcha, amaldagi alifbomizda isloh qilinmasa bo'lmaydigan eng katta nuqsonlar yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Davom etib kelayotgan murosasiz fikrlar to'qnashuvi barobarida, yangi yozuvning hamyurtlarimiz o'rtasida to'la ommalashib ketishiga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Shu bois alifbo loyihasida mavjud noqulayliklarning bartaraf qilinayotgani mazkur jarayonning o'z vaqtida amalga oshirilayotganidan dalolatdir.

Yozuv kishilar o'rtasidagi muhim aloqa vositasi sifatida, kundalik ijtimoiy hayotdagi eng faol amaliy jarayon hisoblanib, u yoki bu ko'rinishdagi turli yozishmalarda o'z ifodasini topadi. Mana shundan kelib chiqqan holda, ta'kidlashimiz mumkinki, mazkur kundalik ehtiyojimiz uchun har jihatdan qulay bo'lgan alifboga ehtiyoj tug'ilishi tabiiy. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi sabab, kundalik ish qurolimizga aylangan telefonlar yoxud kompyuterlarga matn yozish jarayonida o'xshamoq so'zini o'xshamoq yoki unga yaqin bo'lgan diakritik belgi (') dan foydalangan holda o'xshamoq ko'rinishida yozish odat tusiga kirib qolgan sir emas. Shu sababli, ushbu imloviy noqisliklarni bartaraf etish uchun, har tomonlama qulay alifboga haqli ravishda jiddiy ehtiyoj yetildi. Yangi qonun loyihasida ko'pchilikni uzoq yillardan beri qiynab kelayotgan ba'zi muammoli holatlarga asosli yechimlar taklif etilayotganidan faqat quvonish mumkin. Qolaversa, amaldagi alifboning tegishli o'zgartirish va to'ldirishlar bilan takomillashtirilishi savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi, yozuv amaliyotini osonlashtiradi, shuningdek, milliy alifbomizning ilmiy-ta'limiy jihatdan puxta bo'lishini ta'minlaydi.

Ba'zi bir guruh olimlarimiz tomonidan taklif qilinayotgan "6 unli emas, 9 unli harf zarur" degan e'tirozlarga ham to'xtalib o'tsak. Har bir tilning grafika hamda orfografiyasi uning orfoepik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda maydonga chiqadi. To'g'ri, bizda "o" unli tovushining keng va torlik xususiyatlari uning boshqa-boshqa shakl tarzida qabul qilinishi zarurligini taqozo etishi bir jihatdan haqli e'tiroz, albatta. Ammo shuni unutmash kerakki, tili-

mizdagi jonli dialektik jarayon buni keskin rad etishi tabiiy. Chunki o'zbek tilida so'zlashuvchilar boshqa qardosh tillar egalari kabi faqat bitta lahja (yo faqat qarluq, qipchoq yoki faqat o'g'uz lahjasi) da so'zlashmaydilar. O'zbek tili dialektikasida juda katta miqyosda uchta lahja tovushlari birlashganini hisobga oladigan bo'lsak, tabiiyki, qipchoq lahjasidagi unli tovushlarning soni qarluq lahjasidagi unililar sonidan farq qiladi. Shuning uchun har uch lahja tovushlarini bitta alifboda aks ettirishning imkoni yo'q. O'zbek grafikasida olti unlining amalda bo'lishi mazkur dialektik tafovutlarning u darajada keskinlashuvining oldini olib, umumxalq tilining sayqallanishi, nisbatan ma'lum me'yorga solinishiga imkon yaratib beradi. Bundan tashqari, masalaning boshqa tomoni ham bor. Ya'ni, bugun juda katta avlod olti unli va 24 undosh tovushni aks ettirgan alifboda savod chiqardi va shu alifboda fikrimizni ifoda etmoqdamiz. Agar unililar sonini 9 taga yetkazilib, ularni alifboda muayyan harfiy shakllar bilan aks ettirilsa, tilimizda mavjud bo'lgan omograflarga hojat qolmasligi mumkin. Ammo, "o'z" olmoshi bilan "o'zmoq" fe'lini farqlash uchun qabul qilingan maxsus shakl qaysi lahja vakillariga xizmat qilishi mumkin? Holbuki, "o'z" olmoshi qarluq lahjasida cho'ziq talaffuz qilingani holda, qipchoq lahjasida qisqa "o'" tarzida aytilishi hisobga olinsa, o' tovushini farqlab yozish jiddiy mashaqqatga aylanishi turgan gap. Agarda bizning adabiy til me'yorlarimiz monodialektik xususiyat kasb etganida edi, "9 ta unliga bo'lgan ehtiyoj" da vosi o'zini oqlashi mumkin bo'lardi. Shu sababli jonli xalq tilidagi orfoepik talablar natijasi o'laroq, oltita unli bilan ishlash maqsadga yaqinroqdir.

Undosh harflar haqida gap ketganda, alifbo loyihasidagi *sh*, *ch* harfiy birlikmalaridan voz kechilgan holda, *ʃ*, *ç* shakliga keltirilishi qabul qilinayotgan alifboda diagraflardan voz kechilib, diakritik belgilarga o'tishni ta'minlaydi. Bu esa o'zbek grafikasida yozuvni osonlashtiradi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib, alifbo loyihasidagi o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlagan holda, ularga o'z munosabatimizni quyidagilarda aks ettirdik:

birinchidan, amaldagi alifboda *o'* va *g'* harflari bizni eng ko'p qiynayotgan, texnik noqulaylikka, qolaversa, matnlarning xatoga to'lib ketishiga sabab bo'layotgan harflar hisoblanardi. Ushbu harflarni kompyuterda yozishda bir nechta ortiqcha amallarni bajarish lozim edi. Ular isloh qilinayotgani, ya'ni *Ōō*, *Ġġ* shakli alifbo loyihasiga kiritilganini qo'llab-quvvatlaymiz;

ikkinchidan, yozuvimizdagi eng katta noqulayliklardan yana biri *sh* va *ch* diagraflaridir. Ziyolilarning aksariyati ularni soddalashtirish, milliyalashtirish tarafdori. Chunki xalqimiz azal-azaldan bir tovushga – bir belgi tamoyiliga ko'nikkan. Qolaversa, bu tovushlar, ayniqsa, *sh* tovushi o'zbek tilida juda faol tovush hisoblanib, arab tilidan o'zlashgan

Is'hoq, *as'hob* kabi so'zlar imlosida ham *s* va *h* harflarining yonma-yonligi bilan *sh* harfiy birlikmasini farqlashda (ayniqsa, o'zbek tilini o'rganuvchi boshqa tillar vakillari uchun!) jiddiy noqulayliklarni tug'diradi. Natijada ularning matnda ketma-ket kelishi o'qish-yozish jarayonida qiyinchilikni yuzaga keltirmoqda. Shu sabab loyihada taklif qilingan *ʃ ʃ* harfi o'rindir;

uchinchidan, *Hh* va *Xx* harflarining alifboda alohida qayd etilishi juda muhim hisoblanadi. Mumtoz adabiyotimizda, xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari tilida mazkur harflar ishtirok etgan juda ko'p so'zlar bor. Ularning ko'p qismi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ishlatilmoqda. Mazkur so'zlarning yozilish shakli yozuvimizda necha asrlardan beri an'ana sifatida davom etib kelmoqda. Shuningdek, bir qancha o'zbek shevalarida mazkur tovushlar farqlanadi. Yozma an'analarga sodiqlik, tilning ifoda imkonidan kelib chiqqan holda yangi alifboda *Hh* va *Xx* harflarini alohida belgilar bilan ifodalash to'g'ri yo'ldir;

to'rtinchidan, *ng* tovushi o'zbek tilining qadimiy tovushlaridan hisoblanadi. Uni alifbodan qicharish bitta milliy tovushimizni yo'qotishga olib keladi. Shu sababli bu tovush alifboda saqlanishi maqsadga muvofiqdir;

beshinchidan, isloh qilinayotgan alifbodan tutuq belgisi (' - apostrof) ga joy bermaslik, *Hh* va *Xx* harflarini birlashtirib yuborishdan ham nomaqbul ishdur. Negaki, o'zbek tili juda uzoq yillik yozma an'analarga ega til, ana shu an'analarga sodiqlik tufayli bu til-da juda katta adabiyot yaratildi, badiiy barkamollashdi. Bordi-yu tutuq belgisi chiqarilib, *Hh* va *Xx* harflari birlashtiriladigan bo'lsa, o'zbek tili o'zining yozma an'alaridan begonalashadi, badiiyat bilan bog'liq yarim tarovatidan ayriladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, alifbo islohi uchrayotgan ayrim muammolardan cho'chimaslik kerak. Jumladan, bu borada gaplar ta'lim tizimidagi barcha darsliklar uchun ketgan moliyaviy mablag'larga borib taqalar ekan, aytish mumkinki, uch yilda bir marta qayta nashrlar amalga oshiriladi. Mana shu jarayon barobarida mavjud darsliklarimizni qayta tahrirdan o'tkazish mumkin. Qolaversa, isloh qilinguvchi imlo qoidalar tizimidagi boshqa muammolar ham vaqti-soati bilan yechimini topishi muqarrar. Bu oson emas, albatta. Muayyan qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy. Biroq millat kelajagi uchun takomillashgan alifboni qabul qilish hamda imlo va yozuv bilan bog'liq muammolarni imkon qadar tezroq hal qilish eng muhim vazifadir. Ta'kidlaganimizdek, milliy alifbo har qanday millatning yuzi hisoblanar ekan, uning har jihatdan barqaror va to'kis bo'lishini ta'minlashga munosib hissa qo'shmoq har birimizning burchimizdir. Alifbo islohidan asosiy maqsad esa savodsizlikning oldini olishdir. Savodxonlik – jamiyatda shakllangan va kamol topishi kerak bo'lgan milliy madaniyatimizning eng asosiy belgilaridan biridir. Zero, til – millatning ruhi, milliy davlatchilik ramzidir, uning ifodasi esa – mukammal yozuvda namoyon bo'ladi.

Ilhom XOLMURODOV,
tilshunos tadqiqotchi

Ilm zavqi — hayot mazmuni

yoki akademik Naim Karimovning "Abdulla Qodiriy zamondoshlari" kitobi haqida bir-ikki og'iz so'z



Inson umrini ilm-ma'rifat, odamlarga kerakli kitoblar bezaydi. Bu bezakda olim hayotining muhri, yuragining kardiogrammasi, tafakkurining betakror izlari ko'rinadi. Cho'llagan ma'rifatalablar kitoblar — ma'naviyat bulog'idan simirib, chanqog'ini bosishadi. Dunyoga boshqacha nazar bilan boqishadi. Olam ma'rifat nurlari bilan yog'dulanadi, zulmat yorishadi, pasttepalliklar tog'larga do'nadi. Yaxshi kitoblar — ma'naviyat tog'lari. Ularning manfaati, bilmaganlarga bilmaganlarini bildirishi, mudroq kimsalarni uyg'otishi — bu ezgu ishda ulkan savob bor. Olim chinakam ilmga butun borlig'ini baxshida etmaguncha, haqiqatni topa bilmaydi.

Agar ilm insonning umr mazmuniga aylansa, bu izlanishlar, tadqiqotlar, tushunish va tushuntirishlarda fayz, zavq va shavq bo'ladi. Men o'ttiz yidan ko'proq davr maboyinida bilgan davrimizning allomasi, akademik Naim Karimov o'z ong'li umrining butun mazmunini ilmga bag'ishlagan, o'z ijodiy faoliyatini dunyodagi har qanday ishdan ko'ra eng zavqli bir yumashga aylantirgan insondir.

Akademik Naim Karimov ilmiy faoliyati ko'p qirrali, biroq ularni bitta jihat — odamlar qalbiga adabiyot nurini olib kirishdek umumiy bir mayoq birlashtirib, olimning ilmiy faoliyatini ich-ichidan nurafshon qilib turadi. Olim ilmiy-ijodiy biografiyasini ulkan adabiyot siymolar hayoti va ijod yo'lining tahlillari, teran adabiy-nazariy taqinlari, juda muhim ilmiy masalalarga munosabatlari, juda ko'p adabiy muammolarning yechimlari tarixi tashkil qiladi. XX asr o'zbek adabiyotining to'laqonli manzaralarini Naim Karimovning kitoblarini o'qib tugal tasavvur qilish mumkin. Naim Karimov tadqiqotlari Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda va boshqa adiblar ijodining poetik mazmun-mohiyatini, lirik va epik obrazlari tabiatini, ularga zamondosh ijodkorlarning asarlari bilan qiyosi kabi juda ko'p qirralarini anglashga yordam beradi.

Mustaqillik davri Naim Karimov ijodining alohida bosqichini tashkil etadi. Qatag'on dovuliga duch kelgan ziyolilar boshidan kechgan qismat tarixi bo'yicha olib borgan izlanishlari — bu alohida mavzu. Ayni damda qatl etilgan millat gullari — shoir va yozuvchilar to'g'risida yozgan asarlari alohida maxsus o'rganishga, ibratlanib saboq olishga munosib

ijod namunalari sanaladi. Men bu o'rinda olimning "Cho'lpon", "Istiqlolni uyg'otgan shoir", "Usmon Nosir", "Usmon Nosirning so'nggi kunlari", "Maqsud Shayxzoda", "Fitrat", "XX asr o'zbek adabiyoti manzaralari", "Uch buyuk siymo (Qodiriy, Cho'lpon, Oybek)" va boshqa qator kitoblarini nazarda tutmoqdaman. Mustaqillik ne'mati — erkin ijodiy muhit Naim Karimovga ilhom berdi; olim uchun haqiqiy ma'naviy qiyofasini, chin millatparvar ziyoliga xos insoniy fazilatlarini, qat'iyati, shijoati, ma'rifiy jasoratini namoyon etish uchun maydon paydo bo'ldi. Bu kitoblar mohiyatida N.Karimovning dardlari, adabiy-ijtimoiy qarashlari, davr adabiy-nazariy muammolariga munosabatlari, ijod ahlining boshiga tushgan ko'rguliklarni sezishlari — barcha-barchasi o'ziga xos tarzda, ba'zan fojeaviy, gohida lirik pafosga yo'g'irilgan hollarda namoyon bo'ldi. Naim Karimov ko'ngil odami. Badiiy ijod bilan shug'ullanib, ayrim she'rilar, hikoyalar, dramatik asarlar yozganlaridan xabarim bor. Xuddi shunday badiiy ijod tabiatini anglash, unga mehr-muhabbat sezimlari ilmiy asarlarining ayrim sahifalarida ham, xususan, ijodkorning qalbiga, ijod jarayoniga tegishli o'rnlarda juda bilinadi, ko'zga yaroq etib tashlanadi.

N.Karimov yozgan har bir kitob yangiliklarga boy. Yaqinda olim o'zining Mahmudxo'ja Behbudiyga bag'ishlangan muhtasham kitobini yozib tugatganidan xabarim bor, u bosilish arafasida. Undan oldin — yaqinda nashr bo'lgan kitob "Abdulla Qodiriy zamondoshlari" deb ataladi. Juda keng qamrovli, qomusiy xarakterli, juda uzoq yillardagi izlanishlar natijasi bu kitob.

Kitob ko'plab manba va ma'lumotlar

mutolaasi hamda jamlanishidan maydonga kelgan, albatta. Unda Abdulla Qodiriy bilan bog'liq bo'lgan ikki yuz ellikdan ortiq adabiy siymolar — shoir, yozuvchi, adabiyotshunos, umuman, Adulla Qodiriyning ko'rgan, bilgan ziyolilar, oddiy odamlar to'g'risida ma'lumotlar, xotiralar beriladi. Barcha shaxslarga tegishli ma'lumotlar kitobda alifbo tartibida joylashtirilgan bo'lib, ularda markaziy mavzu bilan bog'liq jihatlar o'z ifodasini topgan. "Abdulla Qodiriy zamondoshlari" kitobiga kirgan shaxslarning ko'pchiligi, masalan, Munavvar qori, Cho'lpon, Oybek, Hamid Sulaymon barchaga ma'lum va mashhur siymolar. Ayrimlari esa, deylik, Maksim Gorkiy yoki Aleksey Tolstoy kabi rus adabiyotining mashhur namoyandalari. Kitobni o'qib bu shaxslarning bevosita yoki bilvosita Abdulla Qodiriy bilan aloqalari haqida o'quvchi kerakli bilimlarga ega bo'ladi. N.Karimovning eng muhim xizmatlaridan biri shuki, kitobda bugungi kundagi ko'pchilik o'quvchilar tanimaydigan, ammo Abdulla Qodiriy hayoti yoki ijodida o'z o'miga ega bo'lgan ayrim zamondoshlari uchun ham sahifalar ajratiladi. Deylik, Rashid qozi? U kim? Birov eshitgan, biron biladi yo bilmaydi. Rashid qozi — Yaponiya markazi bo'lgan Tokioda masjid qurdirib, o'sha yerda imom-xatiblik qilgan, XX asr avvalida Rusiya "Ulfat" gazetasini chiqargan ziyoli — Abdurashid Ibrohimid. 20-yillarda bir muddat Toshkentda ham bo'ladi. Bu inson ham adibga zamondosh. Ammo N.Karimov bu ikki siymoning uchrashgan-uchrashmagani borasida ma'lumotlar yo'qligini ham xolisona yozib o'tadi.

O'quvchilar kitobda aynan adib bilan uchrashib suhbatlashgan, adabiy hamkorliklar qilgan Xolid Said, Qamchinbek, L.Y.Sotserdotova kabi Abdulla Qodiriy asarlarining tarjimonlari tarjimai hollari va suvratlari bilan ham yuzma-yuz kelishadi.

Lutfilla Abdullayev — bu nomning Qodiriyga qanday aloqasi bor? Nasabiga qarab qarindoshligi xayolga kelishi ham mumkin. Ammo Abdulla Qodiriy asarlariga mehr qo'ygani bu inson rassom bo'lgan, adib kitoblariga o'ttizdan ortiq rasmlar-illyustratsiyalar ishlagan.



Naim Karimov ulkan adabiyotshunos sifatida qodiriylar yashab ijod qilgan davrni yurak-yurakdan his qiladi, Abdulla Qodiriy va unga zamondosh bo'lgan ezgu niyatli ziyolilarning o'z davridagi kayfiyatini ang'laydi. "Abdulla Qodiriy Navoiy, Bobur, Mashrab singari o'z salafilaridan farqli o'laroq, shunday bir davrda yashadiki, bu davrning ko'zlari uning har bir qadamini kuzatib turdi; uning nimalarni yozayotgani, qayerga borayotgani, kimlar bilan uchrashayotgani ko'rib turdi, bu davrning quloqlari uning safdoshlari bilan, adabiyot muxlislari bilan, qo'ni-qo'shnilari bilan uchrashganida nimalar deganini eshitib turdi, bu davrning temir qo'llari uni bo'g'ib tashlashga doim tayyor turdi". Darhaqiqat, Abdulla Qodiriy yashagan murakkab ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'naviy ob-havosi shunday mud-hish, badbo'y va har qanday ijodkorning ko'nglini xufton qiladigan bir muhit edi. Buni faqatgina shu insonlar o'mida turib, biron kun qo'lga kishan kiygan yoki tergovchilarning tuhmatona savollariga javob berishda hayratga tushgan insongina tasavvur qilishi mumkin.

Akademik N.Karimov ta'biricha, "adabiy iste'dodiga abadiyat tamg'asi bosilgan" adiblarga jismonan qatl qilinsa ham, o'z asarlari bilan asrlardan asrlarga o'tib barcha davr o'quvchilariga zamondosh, dildosh va davrdosh bo'lib istiqomat qiladi.

Olimning "Abdulla Qodiriy zamondoshlari" nomli yangi kitobi muborak bo'lsin; sizga esa, aziz gazetxon, o'sha kitobni topib o'qish va uqish zavqi nisib etsin.

Bahodir KARIM,
professor

Kutubxona

"Sim-sim... Mutolaa sirlari"ni och!



Siz nima uchun kitob o'qiyasiz? Mutolaa sizga nima beradi? Kitobxonlik maqomining mas'uliyati qay darajada? Javob berishga biroz o'ylanib qoldingiz-a? Yaqinda "Oydin" nashriyotida chop etilgan "Sim-sim... Mutolaa sirlari" kitobi aynan yechilmagan tilsimga kalit bo'la oladi. Unda kitob aslida nima ekani, u qanday o'qilishi, foydasi haqida jahon adabiyoti namoyandalarning qimmatli fikrlari jamlangan. To'plovchi va tarjimon — Humoyun Akbar.

Jumladan, Jon Raskin "Qirrollar xazinasi"da "Sim-sim"ga diqqatingizni qaratga, Jon Lebbok "Mutolaa haqida" rivoyatlar bilan fikrini boyitadi. "Sehrlilik eshik ortida" nimalar yashirganini Artur Konan Doyl aytadi.

di. "Kitob qanday tanlanadi?" Andre Morua siz uchun kerakli tavsiyalarni beradi. Lev Tolstoy "Mutolaa davrasi"da har bir kunga taqsimlangan haqiqat, hayot va odob-axloq haqida ko'plab yozuvchilarning fikri-

ni keltirsa, Chingiz Aytmatov "Bizni kashf etgan kitoblar"da o'zining mutolaaga muhabbatini so'zlaydi.

Mutolaa jarayonida tug'ildigan "Kitob o'qishdan maqsad nima?" savoliga Yohannes Bexer "Shoirona tamoyil" asarida: "Biz biron kitobni o'qib chiqqandan so'ng avvaligiga qaraganda o'zga odamga aylanib qolishni istaymiz. Maqsadimiz — o'zgarish, ma'naviy jihatdan boyishni, ulg'ayishni, aqlli-roq, mulohazaliroq bo'lib qolishni xohlaymiz, lo'nda qilib aytganda, kitob bizga nimadir berishi kerak!", deya javob be-



radi. Kitobxon nazaridan chetda qolmaydigan shunga o'xshash masalalarni Xose Ortega-i-Gasset "Kitob o'zi nima?", Karel Chapek "Kitob qanday o'qiladi?", Astrid Lindgren "Bolalarga nima uchun kitob kerak?"da batafsil tushuntiradi.

Kitobni mutolaa qilishda

o'zingiz uchun ham qiziqarli va psixologik jihatdan yondashilgan yangi ma'lumotlar bilan tanishasiz. Savollar-ingizga javob olgach, endi kitoblarni yanada o'zgacha nigoh bilan o'qiydigan bo'lasiz. Konfutsiy shunday degan: "Biz donishmandlikka uch yo'l orqali boramiz: birinchisi, fikrlash yo'lidin, bu — eng olijanob yo'l; ikkinchisi, taqlid yo'lidin, bu — eng oson yo'l; uchinchisi, tajriba orqali, bu — eng og'ir yo'l". "Sim-sim... Mutolaa sirlari" to'plami ham fikrlash, ham tajriba orttirishda yo'l ko'rsatuvchi hamrohingiz bo'lishi shubhasiz.

Dilafroz ABDURAJABOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 25-varianti

ONA TILI

(8-sinf: bir darslik doirasidagi testlar)

1. Qaysi qatorda undalma uyushib kelgan?

A) Xiva, Buxoro, Samarqand – yurtimizning javohirlari.

B) Muhtaram otalar, onalar, kelinlar, o'g'illar, opasingillar, sizga oila tinchligi hamma narsadan muhim.

C) Olimjon, siz ham qarab turmay u-bu ishlarga yordam berib tursangiz bo'ladi.

D) Do'stimiz, Hoshimjon Ro'ziyev har bir vazifani puxta va o'ta mas'uliyat bilan bajaradigan inson.

2. Aniqllovchi qaysi qatorda to'ldiruvchiga bog'lan-gan?

A) Bahaybat samolyot yerga ohista qo'ndi.

B) Ilg'or ishchilarga mukofotlar topshirildi.

C) Mehnat faxriylari bilan yangi bog' uchrasdiki.

D) Salimjon – a'lochi o'quvchi.

3. Kecha akam Farg'onadan Toshkentga samolyotda ketdi.

Ushbu gapda qaysi so'zning ma'nosi boshqalariga nisbatan kuchliroq ifodalangan?

A) Farg'onadan B) akam

C) samolyotda D) ketdi

4. Qaysi so'zning ma'nosi fransuzcha "hakamlar guruhi" va lotincha "qasam, ont ichaman"; "qasamyod qilaman" so'zlarning o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan?

A) jungli B) jyuvi C) jevachi D) jelatin

5. Olma va shaftoli hosili mo'l bo'ldi.

Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi uyushgan?

A) ega B) hol

C) to'ldiruvchi D) aniqllovchi

6. Qaysi qatorda kesimni shakllantiruvchi vosita noto'g'ri ko'rsatilgan?

A) zamon B) shaxs-son

C) egalik D) bog'lama

7. Bosh so'zi bilan bog'liq qaysi ibora "o'ylayverib gangidi" degan ma'noni anglatadi?

A) boshi shishdi B) boshida danak chaqdi

C) bosh qotirdi D) boshini olib ketdi

8. To'pichoq so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?

A) chopqir yo'rg'a ot

B) shahar posbonlari sardori

C) chizma, lavha

D) yog'iy, dushman

9. Mening opam ham talaba.

Ushbu gapda ega va kesim orasida nima sababdan tire ishlatilmagan?

A) kesim tarkibida bog'lama qo'llanmagani uchun

B) ham yuklamasi qo'llangani uchun

C) ega tarkibida egalik shakli borligi uchun

D) punktuatsion xato bor, tire qo'llanishi shart

10. Murakkab kesimni shakllantiruvchi vosita qaysi qatorda noto'g'ri berilgan?

A) ko'makchi fe'l B) bog'lama

C) shaxs-son D) nisbiy so'z

11. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi.

Ushbu gap egasiz gapning qaysi turi hisoblanadi?

A) shaxsi (egasi) ma'lum gap

B) shaxsi (egasi) umumlashgan gap

C) atov gap

D) shaxsi (egasi) noma'lum gap

12. O'g'lim, qo'zichog'im, orom olib uxlayapti, – dedi ona.

Ushbu gapda qaysi gap bo'lagi ajratilgan?

A) kesim B) izohlovchi

C) hol D) to'ldiruvchi

13. Epigraf haqidagi to'g'ri hukmlarni toping.

1) Inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so'z, maqol, ibora yoki badiiy parcha epigraf deyiladi.

2) Epigraf, odatda, rejadan oldin, insho matnidan oldin, sahifaning o'ng chekkasida yoziladi;

3) Epigraf bo'lgan matndan so'ng (so'roq yoki undov gap bo'lmasa) nuqta qo'yiladi, muallif nomi qo'shtirnoq ichida beriladi;

4) Inshoda epigraf bo'lishini qat'iy talab deb tushunmaslik kerak, u tamoman ixtiyoriy.

5) Mavzu va ichki mazmunga hamohang keluvchi epigraf tanlash inshoning badiiyligiga xizmat qiladi, insho muallifining mahoratini ko'rsatadi.

A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 2, 3

C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 5

14. Oyna so'zining ma'nosi quyidagi qaysi so'zga mos keladi?

A) randalamoq B) qayrilmoq

C) uzilmoq D) sinmoq

15. Biri ikkinchisini izohlamaydigan bog'lanish qaysi qatorda berilgan?

A) gul chiroyli B) o'qidi va yozdi C) maktabning

bog'i D) ko'p o'qimoq

UYGA VAZIFA: Keyingi sonda 9-sinf "Ona tili" darsligidagi 3-46-betlarda berilgan mavzular asosida tuzilgan test topshiriqlari beriladi. Mazkur mavzularini qunt bilan o'qing va bilimingizni mustahkamlang.

G'anisher HAQNAZAROV,

Xatirchi tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi

MATEMATIKA (“O'lcham birliklari”)

6-8-sinf materiallari bo'yicha)

16. O'lchamlari 12 m, 10 m, va 5 m bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped ko'rinishidagi basseyinni suv bilan to'ldirishmoqchi. Agar quvurdan har minutda 4 kub metr suv basseynga tushsa, basseyin necha soatda to'ladi?

A) 2,5 B) 25 C) 6 D) 60

17. To'g'ri tenglikni aniqlang.

A) 1 ga 12 ar = 112 ar B) 10 ga 3 ar = 130 ar

C) 1 ga 12 ar = 122 ar D) 1 ga 30 ar = 1030 ar

18. Maktablar orasidagi

masofalar rasmdagidek

berilgan. Agar yo'lovchi

5 km/soat tezlik bilan yursa

A dan E ga eng kamida

necha soatda boradi?

A) 11 B) 12 C) 10 D) 13

19. Agar 1² metr ga 200 g bo'yoq ketishi ma'lum bo'lsa, 12,5² metr devorni bo'yash uchun necha kg bo'yoq kerak bo'ladi?

A) 2,5 B) 25 C) 0,25 D) 250

20. 6m² 2sm² 6mm² ni mm² da ifodalang.

A) 626 B) 6026 C) 60206 D) 6000206

21. Agar 10 dirham pul 6 oyda 3 dirham foyda keltirsa, 25 dirham pul 4 oyda necha dirham foyda keltiradi?

A) 9 B) 15 C) 5 D) 10

22. Vaqt o'lchov birliklarida berilgan to'g'ri tenglikni toping.

A) 100 min = 2 soat

B) 150 min = 1,5 soat

C) 150 min = 2,5 soat

D) 180 min = 4 soat

23. 56 t yukni 3 t va 5 t yuk ko'tara oladigan mashinalar bilan tashishdi. Bunday mashinalar hammasi bo'lib 16 ta bo'lsa, ularning nechitasi 3 t, nechitasi 5 t yuk ko'tara oladigan mashinalar ekanini toping?

A) 9; 7 B) 5; 11 C) 12; 4 D) 11; 5

24. 270 g suvga 30 g tuz qo'shildi. Aralashmada necha foiz tuz bor?

A) 30 B) 40 $\frac{1}{4}$ C) 10 D) 6 $\frac{3}{4}$

25. Soatning mili 25 minutda necha gradusga buriladi?

A) 120 B) 20 C) 150 D) 10

26. Bugun yakshanba bo'lsa, 45 kun oldin qaysi kun bo'lgan?

A) Seshanba B) Chorshanba

C) Payshanba D) Juma

27. -90 dan 88 gacha bo'lgan butun sonlar yig'indisini toping.

A) -189 B) 189

C) 294 D) 99

28. Hisoblang: 16m²=?sm²

A) 1600 sm² B) 160000 sm²

C) 16000 sm² D) 160 sm²

29. Sonni standart shaklga keltiring: 0,00000512.

A) 5,12·10⁻⁶ B) 52·10⁻⁵

C) 5,12·10⁻⁴ D) 512·10⁻⁴

30. 1 soat 45 minutni soatga aylantiring.

A) 1,45 soat B) 1 $\frac{3}{4}$ soat C) $\frac{3}{4}$ soat D) 1,54 soat

Keyingi sonda "Geometrik shakllar va ularning o'lchovlari" mavzusiga oid murakkabroq testlar beriladi, bunda testlar 6-8-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi 32-maktabning
matematika fani o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI (10-sinf "O'zbekiston tarixi" darsligining 1-4-mavzulari asosida tuzilgan test topshiriqlari)

31. "Tarix millatlarning o'tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o'rganaturg'on ilmdir".

Tarixdan saboq chiqarish to'g'risidagi ushbu so'zlar qaysi ma'rifatparvarga tegishli edi?

A) Mahmudxo'ja Behbudiy

B) Munavvarqori Abdurashidxonov

C) Abdurauf Fitrat

D) Mustaf Cho'qay

32. "Sho'royi Islomiya" partiyasiga dastlab kim rahnamolik qilgan?

A) Abdulvohidqori Abduraufqori o'g'li

B) Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev

C) Mustaf Cho'qay

D) Munavvarqori Abdurashidxonov

33. Quyidagi qaysi masala Butunturkiston musulmonlarining favqulodda IV qurultoyi diqqat markazida turgan?

A) Turkiston Konstitutsiyasi loyihasi masalasi

B) Turkistonni boshqarish shakli masalasi

C) bolsheviklar bilan koalitsion hukumat tuzish masalasi

D) Rossiya imperiyasidan ajralib chiqish masalasi

34. 1918-yil fevralda "Ulug' Turkiston" gazetasi tomonidan quyidagi qaysi shahar "o'liklar shahri" deya ta'riflangan?

A) Toshkent B) Marg'ilon C) Qo'qon

D) Skobelev

35. Turkiston Muxtoriyati hukumati tarkibida Bosh vazir hamda ichki ishlar vaziri etib saylangan shaxs kim edi?

A) Muhammadjon Tinishboyev

B) Mustaf Cho'qay

C) Islom Sulton Shoahmedov

D) Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev

36. "Sho'royi Ulamo" jamiyati nizomi va dasturida quyidagi vazifalardan qaysi biri qayd etilmagan?

A) ichki siyosiy tuzilmada shariat qonunlariga qat'iy rioya qilish

B) milliy-diniy qadriyatlarini yuksaltirish

C) madrasalarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash

D) Turkistonning muxtoriyati huquqiga erishishi uchun kurash

37. "Sho'royi Ulamo"ning Toshkent sho'basiga kim rahbarlik qilgan?

A) Sherali Lapin

B) Mulla Muhiddinxon

C) Mulla Ulug'xon To'rayev

D) Munavvarqori Abdurashidxonov

38. Turkiston Qo'mitasi tarkibiga turkiy xalqlar va killaridan kimlar kiritilgan?

1) Mustaf Cho'qay; 2) Muhammadjon Tinishboyev;

3) Islom Shoahmedov; 4) Alixon Bukeyxonov;

5) Yurguli Agayev; 6) Sadri Maqsudiy;

7) Ahmad Zakiy Validiy To'g'on

8) Abdul Aziz Davletshin.

A) 1, 3, 5, 7 B) 2, 4, 6, 8

C) 1, 2, 3, 4 D) 5, 6, 7, 8

“Ma’rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 25-varianti

39. 1918-yil 20-noyabrda quyidagi qaysi mahalliy rahbar raisligida Turkiston ASSRda ocharchilikka qarshi kurash Markaziy Komissiyasi tuzilgan?

- A) T.Risqulov B) N.Xo'jayev
C) A.Muhtidinov D) Y.Ibragimov

40. Qachon “Sho'royi Islomiya” tashkilotidan bir guruh ulamolalar ajralib chiqib, yangi jamiyat – “Sho'royi Ulamo”ga asos solishdi?

- A) 1917-yil iyulda B) 1918-yil sentabr
C) 1917-yil mart D) 1917-yil iyunda

41. Xalqimiz tarixidagi dastlabki demokratik hukumatni aniqlang.

- A) “Sho'royi Islomiya”
B) Turkiston Muxtoriyati
C) Turkiston avtonom sovet respublikasi
D) Turkiston Xalq Komissarlari Soveti

42. Turkiston Sovet Respublikasi nomini o'zgartirib, uni Turk Respublikasi deb atash g'oyasini qaysi millatparvar ilgari surgan?

- A) T.Risqulov B) N.Xo'jayev C) A.Muhtidinov
D) Y.Ibragimov

43. TASSR – Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi qaysi syezdda e'lon qilindi?

- A) Turkiston sovetlarining V syezdida
B) Butunrossiya musulmonlarining II syezdida

C) Butunturkison musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida

D) Butunrossiya sovetlarining IV syezdida

44. 1917–1923-yillarda bo'lib o'tgan ocharchilik oqibatida Farg'ona vodiysida (a) va Samarqand viloyatida (b) qancha kishi halok bo'lgan?

- A) a – 100 ming, b – 20 ming
B) a – 2 mln, b – 1 mln
C) a – 1 mln, b – 400 ming
D) a – 400 ming, b – 200 ming

45. Quyidagi qaysi javobda Sovet hukumati tomonidan Turkiston ASSRda o'tkazilgan yer-suv islohotidan ko'zlangan maqsadlar sanab o'tilgan?

1) Boy-quloq xo'jaliklarni tugatish va ko'chmanchi aholini o'troq holatga o'tkazish; 2) Katta yer egaligini yo'qotib, yerlarni yersiz va yeri kam dehqonlar, batraklar, chorakorlar o'rtasida mehnat normalari bo'yicha taqsimlash; 3) Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining ayrim sarqitlarini tugatish; 4) Paxta yak-hokimligi asoslarini yaratish.

- A) 1, 3 B) 1, 2, 3 C) 1, 2, 3, 4 D) 3, 4

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti
talabasi,
repetitor

25-VARIANT TESTLARINING JAVOBLARI

ONA TILI														
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
B	B	C	D	D	C	A	A	B	C	D	B	C	D	B
MATEMATIKA														
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
A	A	A	A	D	C	C	C	C	C	C	C	B	A	B
O'ZBEKISTON TARIXI														
31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
C	A	B	C	A	A	A	B	A	D	B	A	A	C	B

Muxlis ehtiromi

Temir jon iztiroblari (Jontemir ijodiga bir nazar)

Yozayotganlarim adabiyotning qaysidir mezoniga bo'ysunadimi, yo'qmi, bilmayman. Lekin xursandmanki, dilimning pok tomonlarida o'ylab-o'ylab yurganlarim qog'ozga to'kilyapti. O'zimcha yaratayotgan “Muxlis ehtiromi” turkumimga dilimning yana o'sha pok va olis tomonlaridan yo'lga chiqqan yangi-yangi izhorlarim kelib qo'shilyapti...

Tariximizning dardli kunlari ko'p bo'lgan. Ularning sanog'iga yetib bo'lmaydi. Dilingiz dardga to'lgani qoladi. O'sha dardli kunlarning dardli qahramonlari – qurbonlari ham bo'lgan...

Ular haqida ko'p yozilgan, yozilmoqda, yozilajak!

Keling bugunga, hozirga, biz bilan bir havodan simirib turgan ijod ahliga yaqinlashaylik. Ana shu muhitning nisbatan pok, sanoqli va qayg'uli tomonlarida bir shoir yashaydi. Darveshlaracha bo'lsa-da, har holda, yashashga monand yashayapti, ijod qilyapti. Ana shu yosh darveshning kekxa iztiroblarini ko'pchilik bo'lib muhokama qilishga urinsak, unga biroz yengil bo'larmi, degan g'o'r xayolda qo'limga qalam oldim. O'zimni anchagina she'r shaydosi hisoblab yursam-da, haligacha birorta she'r badaliga ko'zinga yosh kelmagan. Bugun tong azonda ijtimoiy tarmoqni ko'zdan kechira turib, Darveshning “Iztirob”iga duch keldim...

*“G'am tiyg'ida so'yilgan tildan,
Qon to'kilmay, bol to'kilmarmi?
Qon to'kilmay, bol to'kilmarmi?”*

Qulog'im ostida bexos Shavkat Rahmonning:

*“Yovga ters qaragan
musulmon emas!
Yovga ters qaragan
musulmon emas!..”*


degan satrlari yangragandek bo'ldi. Ohh... haliyam bor ekan-ku, deb yubordim! Jasorat satrlari, to'g'rilik satrlari. Bo'yab-bejalmagan, gulga burkanmagan satrlar... Hayqiriq satrlari!

Shoir yozaypti:

*“Men – Vatanman,
harom-harishlar
yotog'ida to'lg'ongan vatan!
Men – Vatanman, asl farishda
va iblisdek bulg'angan vatan!”*

Vatan — muqaddas. Ayniqsa, ko'ngildagi Vatan mudom muqaddasdir. Albatta, u mavjud bo'lsa. Shuning uchun tashqi olamdagi biz Vatan deb ataydigan muhit qanchalik razolatga burkanmasin, shoir aytgandek harom-harishlar yotog'ida bo'g'ilib, to'lg'onmasin, baribir u ko'ngilda muqaddasligiga qolaveradi. Garchi ko'ngil vatanini tashqi tomondan iblisdek bulg'ashga urinsalar-da, SHOIR ichki VATANI bilan buyukdir va muqaddasdir.

Bugungi kunda turib o'tmish xatolaridan iztirob chekish, qiyinalish, buyuklar zavoli uchun javobgarlik hissi va xoinlar qilmishlaridan jirkanih, alamlanish...



*“Meni butla, birlashtir, avval
Shahidlarim mozorini top!
Nafrat ko'ksin emgan intiqom
Qutqusiga tashlagil hijob.
O'tmishimning yirtig'in yama,
Suyagimni yomg'irda chaydir,
Xoinlarni do'xaxga qama! Chorla,
Qadim nomimni aytib...”*

Bul faqat SHOIRga xos xislat, faqat SHOIRga!

Insonning hech qachon o'zini xafa qilmaydigan nuqtasi ko'ngil bo'lsa kerak. To'g'rirog'i, u xafa bo'lsa, shartta o'zini xursandlikka urolmaydi. Mammunligida esa hech qachon mahzunlikka intilmaydi. Qayrilib ham qaramaydi.

Shoirning dili ham ana shu mahzunlikda. U yon-verida kechayotgan mamnuniyat onlaridan bir lahza orom ololmaydi, o'z ko'ngil haqiqatidan, vijdonidan qochib qutulolmaydi:

*“Baxt so'raysan tag'in paydar-pay,
Tabassurning sig'mas yodimga.
O'yin-kulgu, may emas, keskir
Hislar kerak e'tiqodimga!..”*

Bu hislar bizga ham kerak. Juda ham kerak. Balki safimiz, sonimiz kengaygani sari, bu noyob hislarning hammaga baravar taqsimlanishi ham osonlashar... Tag'in kim biladi deysiz!

“Darvesh qo'shiqlari”! Qo'shiq deb bag'ringga ekan purdard munjohtlaring yuki naqadar og'ir... Shavkat Rahmonning “Avj” she'ridagi quyidagi satrlar yana bostirib keldi. Balki tasalli bermochidir...

*“Men, shubhasiz, parchalanaman.
Shunday tugar buyuk xizmatim.
Kimga ko'zim, kimga peshonam,
Kimga tegar qiziq qismatim”.*

Balki kuchli qiziqishdan mubog'aga yo'l qo'yayotgandirman. Lekin nazarimda, shu “qiziq qismat” shoir Jontemirga tekkandek...

Men, bir she'riyat muhibi sifatida, shoirga ijodiy poklikni, buyuk shoirlarning buyuk qismatchalik bo'lmasa-da, haqiqiy Haq shoirlarining azaliy qismatini tilayman!

Gulrang UBAYEVA,
ToshDO'TAU talabasi



Tonggi shamollarda to'kilganim bor...

She'rlarim ko'p...

Bog'laringda bulbul bo'lay, qondosh elim,
Tog'laringda bir gul bo'lay, sirdosh elim.
Shudring bo'lay tonglaringda, jondosh elim,
Hali senga aytadigan she'rlarim ko'p,
Yuragimda aytilmagan so'zlarim ko'p.

Olтин ungan dalalaring o'pay mayli,
Maysa ungan qirlaringda chopay mayli.
Ne topsam ham, faqat sendan topay mayli,
Hali senga aytadigan she'rlarim ko'p,
Yuragimda aytilmagan so'zlarim ko'p.

Burgutlaring tog'laringda juft-juft bo'lar,
Bahoringda qaldirg'ochlar uchib kelar.
Shamollar-chi, qir-dalangni quchib yelar,
Hali senga aytadigan she'rlarim ko'p,
Yuragimda aytilmagan so'zlarim ko'p.

Qoyilman men sening do'ppi, choponingga,
Sihat tilay bugun sening jon-taningga.
Maqtoqlarim bori sening shu sha'ningga,
Hali senga aytadigan she'rlarim ko'p,
Yuragimda aytilmagan so'zlarim ko'p.

Kulgular malham...

Ko'chkin shamol kabi kezib darbadar,
Yuz burib ketgandek shirin tuyg'ular.
Yurakdan o'rnanib jaranglar ilkis,
Malham — sen baxsh etgan shodon kulgular.

Bahor tashlab ketdi bog'larga mujda,
Ishq kabi kuydirgich bo'ldi saraton.
Quvonchlar yengildi xazonrez kuzda,
Zulmga boy bo'ldi achchiq qahraton.

Turnalar balandlab uchgan yarim tun,
Mungli saslaridan seskanar osmon.
Intiq nigoh aro aylasa dildun,
Og'ushiga olar ming bir hayajon.

Halovat topmasa sokinlik nogoh,
Bo'ronli tuyg'ular zulmatga eltsa.
To'liqli tabassum aylasa panoh,
Tizginli azoblar olislab ketsa.

Guldan poyandozlar to'shaya yo'llar,
Sim-sim yomg'irlarda erisa g'ubor.
Goh yolg'on, gohi rost ingransa dillar,
Tonggi shamollarda to'kilganim bor.

Nazokat OTAQULOVA,
Sirdaryo tumanidagi 40-maktab direktorining
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari

"Sizni osmondan yaxshi ko'raman!"

— O'yijon, sizni osmo-anday yaxshi ko'raman, — deydi to'rt yashar qizim jajji qo'lchalari bilan bo'ynimdan quchib. — Siz-chi?

— Osmondan ham katta!

— Osmondan ham katta nima, oyi? — deydi qizim moviy ko'zchalarida mehr tovlanib. O'ylanib qolaman.

— Hammadan ko'p yaxshi ko'raman degani, — deyman uning adoqsiz savollaridan zavqlanib.

Nogoh bolalik xotiralarim ko'z o'ngimda jonlanadi. U paytlar hali ukalarim tug'ilmagandi. Otamning ham, onamning ham quchoqlab, o'pib erkalaganini unchalik ham eslolmayman. Lekin ularning butun vujudidan, yuz-ko'zlaridan cheksiz mehr taralar, men bu so'ngsiz mehrni doimo his qilib turardim. Otam yoki onamni mahkam quchoqlab "Sizni juda yaxshi ko'raman" deganimni eslolmayman. Ammo mehr ko'rinishlari turli xil bo'lar ekan, nazarimda. Mehr ko'zlarimizda, butun xonadonimizda quyosh nurlari zaminni isitgandek, taralib, aks etib turardi.

Yolg'onning oqibati

(ertak)

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonda shinamgina uychada kichkinagina oila: ota-ona qizchasi va mushukchasi bilan yashar ekan. Har kuni ota va onasi ishga ketar, qizcha va uning mushukchasi uyda yolg'iz qolisharkan. Shunday kunlarning birida qizcha rasm chizayotganda qalami tushib ketibdi. Uni olaman deb onasining stol ustidagi eng yaxshi ko'rgan vazasini sindirib qo'yibdi. Qizcha juda qo'rqibdi va shisha siniqlarini supurib chiqindi chelagiga tashlabdi. Dadasi va oyisi ishdan qaytishibdi. Onasi stol ustiga qarasa sevinli vazasi yo'q. Qizidan stol ustidagi vaza qani, deb so'rabdi. Qizcha esa sizlar ishga ketganingizda mushugimiz stol ustida o'ynayotgan edi, to'satdan vazangizga tegib ketdi. Keyin vaza pastga tushib sindi, deb aybni mushukchaga to'n-kabdi. Oyisi mushukchani koyibdi va uni haydab yuboribdi.

Vaqt o'tgan sari qizcha mushukchani juda sog'inibdi, vijdoni ham qiynalibdi. Oxir-oqibat chiday olmay oyisiga bo'lgan voqeani aytib beribdi. Meni kechiring, oyi, vazangizni men sindirib qo'yg'an edim, debdi. Oyisi, qizim, hechdan ko'ra kech yaxshi, o'z aybingni tan olding, ammo yolg'on gapirganing uchun sening aybingga mushukchang javob beryapti. Ko'rdingmi, yolg'onning oxiri nima bo'lishini, debdi. Qizaloq onasiga endi hech qachon yolg'on gapirmaslikka so'z beribdi. Hammalari birgalikda mushukchani izlagani borishibdi. Yo'lda ketayotib uni topib olishibdi. U darast tagida qaltirab yotgan ekan, egalarini ko'rgach, ularning quchog'iga otilibdi va barchalari uyga qaytishibdi.

Mohlaroy G'ULOMOVA,
Marhamat tumanidagi
6-maktab o'quvchisi

Konsert ichidagi konsert

Konsertda o'tiribmiz bola-chaqamiz bilan. "Shahrimizda Derekibek Mazbolg'an o'g'lining konserti bo'larkan" degan xabar tarqalishi bilan xotinim miyamni qoqib qo'limga berdi.



Konsert hali boshlangani yo'q. Achchig'im chiqqanidan shartta yuzimga bir shapaloq tushirgandim, zaldagi xaloyiq ham yuzlariga shapaloq urishdi. Ha, shapaloq urdik. Qayta-qayta. Hamon yo'q. Jahlim chiqib, ikkinchi yuzimga ham shapaloq tushirgandim, xaloyiq qayta-qayta qarsak chaldi. Bir vaqti kerilib, odamga o'xshab, qo'shiqchimiz sahnaga chiqdi-yu:

— Nega keldilaring? — deb so'radi.

Zal jimjit. — Sizlarni kim chaqirdi? — deb so'radi Derekibek yana. Bu safar xalq chuyillay ketdi:

— Bu qo'shiqchi nima deyapti?

— Nega ketarkanmiz. Qo'shig'ingni boshla!

— O'zingcha puling ko'payib qolganda. Etikchi bo'lganingda holingni ko'radik.

— Qo'shiq ayt. Qo'shiq!

Derekibek mikrofonni yeb qo'ygudek bo'lib taltayib turibdi. Muxlislarini ayagani yo'q. Yon atrofiga mensimay qarayapti. "Ko'cha bolasi-ku bu...". Bir payt koyishni boshladi:

— "Zerikkan sart hisob yechadi", deyishadi. Namuncha xursand bo'lib

o'tiribmiz? Uylaringda o'tirmaysizlarmi? Hamma narsa qimmat zamonda... Konsert desa o'zlaringni tomdan tashlaysizlar. Undan ko'ra muzeyga boringlar. Nega muzeyga bormaysizlar? Kutubxonalarga-chi? Mening konsertimga yetib kelganini qarang. Hech narsa ko'rman bular. Men hammasidan to'ydim, ana endi sakrayapman. Qo'llaringdan nima keladi, konsert bermayman! Masjidga bormaysizlar, ovozi bormi yo yo'qmi, farqi yo'q, qo'shiqchilarning konsertiga yetib kelasizlar! Yarim-

yalang'och qo'shiqchi qizlarni hurmat qilaszlar! Namozga behurmatlik qilaszlar. Masjidga borib, ehson qilish xayollaringga ham kelmaydi"... deb nasihat qilayotganim yo'q, shunchaki, ana bir oqsoqolni aytayapmanga... menga o'zicha nasihat qilyapti. Amaki, sizga aytyapman! Yoki men sizlarga "olovning boshi, o'choqning qoshi", uyimdagi muammolarimni aytyapmanmi, og'aynilar?

Yoki sizga "bo'ynimda falon ming kreditim bor", deyapmanmi? Norozi bo'lsangiz, marhamat, o'ringizdan turing-da, chiqib keting, og'ayni. Behuda ranjiyapsiz. Hech kim zerikkanidan kelgani yo'q. "Zerikkan sart ... qulog'ini uqalayveradi", deyishadi. Shuning bilan konsertimiz o'z nihoyasiga yetdi, yana ko'rishguncha, omon bo'linglar!

Zalda hamma birdan qarsak chalishni boshlashdi. Qarasam, konsertgamas, "Konsert ichidagi konsert" degan spektaklga kelgan ekanmiz. Qanday adashganmiz, hayronman?

Qozoq tilidan Zomin tumanidagi
36-maktab o'qituvchisi
Nodirbek YO'LDOSH tarjimai.

Har o'quv yilining ma'lum oylari jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun maxsus fan oyligi sifatida o'tkaziladi.

Maxsus ta'lim fan oyligi

Uyda o'tilgan noan'anaviy darslar

Har bir hududda umumta'lim maktablari tasarrufida imkoniyati cheklangan bolalar bor, ular uyda maxsus ta'lim olishadi. Angren shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli ta'lim muassasalari o'qituvchilari ham 87 nafar imkoniyati cheklangan o'g'il-qizga bilim va kasb-hunar sirlarini o'rgatib kelishmoqda.

Ularga 158 nafar pedagog dars berib kelmoqda. Har o'quv yilining ma'lum oylari jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar uchun maxsus fan oyligi sifatida o'tkaziladi. Bu yil ham o'quvchilar va ularning ota-onalari xohish istagidan kelib chiqib fevral-mart oylarida "Uyda yakka tartibda ta'lim oluvchi o'quvchilar fan oyligi" noan'anaviy tarzidagi ochiq darslar, amaliy mashg'ulotlar bilan qiziqarli tashkil etildi. Ushbu fan oyligida yudagi bola noodatiy mashg'ulotlarda o'z bilimini

mustahkamlashi, o'zini yolg'iz his etmasligi, tengdoshlari kabi bolalik zavqini tuyishi maqsadida xonadonlarga maktab o'quvchilari ham borishdi.

Qolaversa, ochiq darslarda pedagoglar psixologik metod va o'yinlar orqali bolalarda motivatsiya uyg'otishga urinishdi. Jumladan, Angren shahridagi 16-maktabning uyda ta'lim oluvchi 3-sinf o'quvchisi Asal Abdurashidovaga "Donolar donosi" mavzusida ochiq dars o'tkazildi. Imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramasdan Asalning she'ri-

yatga qiziqishi juda baland. Tumandagi 14-maktabning 4-sinfida yakka tartibda ta'lim oluvchi Sardorbek Jamolidinovning ona tabiatni sevishi, atrofga bo'lgan iliq mehri e'tiborimizni tortdi. Uning ustoz Saltanat Karaboyevaning aytishicha, o'quvchining tayanch harakat a'zolarida nuqsoni bo'lishiga qaramay, Toshkent shahri va Toshkent viloyati tabiati, o'simliklari, hayvonlari haqida bilimga ega. 15-maktabning 7-sinf o'quvchisi Zahro Abdulamitovaning til va adabiyotga qiziqishi, faolligi adabiyot fani o'qituvchisi Fayoziddin Do'stovning "Sara'zohoyi jumla. Muftado" (Ega va kesim) mavzusida ochiq darsida namoyon bo'ldi.



Maxsus fan oyligi davomida psixolog va defektologlar bolalar bilan shug'ullanishdi, ota-onalar bilan fikr almashildi. Muhimi, ularning kayfiyati ko'tarildi, yangi orzular dildan tilga chiqdi.

Aziza SATTOROVA,
Angren shahar xalq ta'limi bo'limi metodisti

Bo'ronov Akmal Qalandar o'g'lining 03.00.09 — Umumiy genetik ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistondagi qadimiy mahalliy bug'doy navlarining gliadin oqsili polimorfizmi va irsiylanishi" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-aprel kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali.
Tel/faks: (71) 264-23-90, 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz

Shodiyeva Ozoda Majidovnaning 03.00.09 — Umumiy genetik ixtisosligi bo'yicha "G.hirsutum L. navlarining turli iqlim sharoitida populyatsion o'zgaruvchanlik darajasi" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 12-aprel kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111208, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti majlislar zali.
Tel/faks: (71) 264-23-90, 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz

Mamatqulov Xurshid Abdurashidovichning 13.00.02 — Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Xorijiy tillar bo'yicha harbiy pedagoglar kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish" mavzusida (pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 19-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21- "a" uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91, 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru

Xamzayev Xaqberdi Eshmirzayevichning 05.02.01 — Mashinasozlikda materialshunoslik. Quyumachilik. Materiallarga termik va bosim ostida ishlov berish. Qora, rangli va kamyob metallar metallurgiyasi. Kamyob, nodir va radioaktiv elementlar texnologiyasi ixtisosligi bo'yich "Polietilen asosidagi metall to'ldiruvchili nanokompozitsion materiallar va ular asosida mahsulotlar olish tarkibi va texnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.5/27.02.02020.T.73.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 17-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100167, Toshkent shahri, Temiryo'ldlar 1-tor ko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (71) 299-00-01, 293-57-54; e-mail: tashiti_rektorat@mail.ru

Hayitov Odiljon G'afurovichning 04.00.07 — Neft va gaz konlari geologiyasi, ularni qidirishi va razvedka qilish ixtisosligi bo'yicha "Buxoro-Xiva o'lkasining janubi-sharqiy qismidagi uglevodorod konlarini o'zlashtirish va zaxiralarni samarali qazib olishning geologik asoslari" mavzusidagi (mineralogiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruv instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/30.12.2019.GM.41.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-aprel kuni soat 14:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100059, Toshkent shahri, Shota Rustaveli ko'chasi, 114-uy.
Tel/faks: (71) 250-92-15, 250-92-15; e-mail: igirmign@ing.uz

Tangriyev Alisher Jumanazarovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Chuqurlashtirilgan bosqichda yosh dzyudochilarning tezkor-kuch qobiliyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
O'zDJTSU binosi.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Yusupov G'ayrat Abdullayevichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Sog'lomlashtiruvchi gimnastika vositalari orqali talaba yoshlarning jismoniy rivojlanishini korreksiyalash metodikasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-aprel kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
O'zDJTSU binosi.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Qirg'izboyev Ma'rufjon Mo'ydinovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Belbog'li kurashda bo'g'imlarni egiluvchanlikning ustuvorligi va uni ixtisoslashtirilgan tartibda rivojlantirish metodikasi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-aprel kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
O'zDJTSU binosi.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Sattorova Dilfuza Maksudovnaning 02.00.06 — Yuqori molekulyar birikmalar, 02.00.12 — Nanokimyo, nanofizika, nanotexnologiya ixtisosliklari bo'yicha "Elektrospinning usuli orqali xitozan Bombyx mori va uning hosilalari asosida nanotolalar olish" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy kengashning 2021-yil 23-aprel kuni soat 10:00 dagi onlayn (masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100028, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7 "v"-uy.
Tel/faks: (71) 241-85-94, 241-26-61; e-mail: polymer@academy.uz

Toshkent bank hisob-kredit kolleji tomonidan 2016-yil 11-iyunda Toxirov Is-lombek Doniyor o'g'liga berilgan K № 4454956 raqamli DIPLOM va uning ilovasi yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Toshkent shahri, Sergeli tumanidagi 322-umumta'lim maktabi tomonidan 2014-yilda Tursunov Egamberdi Dilmurod o'g'liga berilgan U № 6736436 raqamli SHAHODATNOMA yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

A.Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti jamoasi institutning sobiq rahbari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi pedagogika fanlari doktori, professor

Jo'ra G'aniyevich YO'LDOSHEVning

vafoti munosabati bilan oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor qiladi.

"Boshlang'ich ta'lim" jurnali Tahrir hay'ati va jamoasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi, pedagogika fanlari doktori, professor, "Boshlang'ich ta'lim" jurnali tahrir hay'ati a'zosi

Jo'ra G'aniyevich YO'LDOSHEVning

vafoti munosabati bilan oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya izhor qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti jamoasi bo'lim mudiri, filologiya fanlari doktori Ulug'bek Hamdamovning otasi

Abduvahob HAMDAMOVning

vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.

Internet tarqatkich (wi-fi) o'chib qoldi. Hammaning ko'zida uyqash bir qayg'u. Xirosimaga atom bombasi tashlanganda ham insoniyat bu qadar og'ir iztirobga tushmagan bo'lsa kerak. So'nggi chaqasini o'zidan yashirib, keyin o'zi topolmay yurgan bechoraday tor-gina ijara uyimizda garangsiragancha, uf tortib u yoq bu yoqqa yurdik. Biror ermak topish kerak. Kimdir javondagi kitoblarni tomosha qila boshladi (changini qoqib), yana kimdir yirtiq shimini tikishga igna qid-rib qoldi...

Kitobga qaytish



Kechga tomon tuxumdan boshqa ne'matni ko'rmagan qozonimizda osh pishdi. Issiq choydan ho'plab gurgung qila boshladik. Xonadoshlarim tuzukkina yigitlar ekan. Hatto biri uzoqroq qarindoshim chiqib qoldi. Ibtidoiy odamlar-ning imo-ishoralari kabi beo'xshov boshlangan suhbat, devorlarni titratgan

xandalarga ulanib ketdi. Odamga aylana boshladik.

Inson ovqat yemay, suv ichmay ham ma'lum muddat yashashi mumkin, ammo hozirgi davrda internet-u telefonlarsiz biror soat yashashni tasavvur qilish qiyin. Uyg'onish jarayonida hali miya kim-u nimaliging, qayerdaligingni

anglamay tursa-da, qo'llar undan avval-roq paypaslagancha telefonni qidirayotgan bo'ladi. Ko'chada, o'qishda, ishda, uyda — telefon. Hatto uxlayotganda ham telefon bilan uxlaymiz. Tafakkur, qalb, tuyg'u... hamma-hammasi telefonga — bir parcha temirga aylanib borayotgani sezilmaydi. Temir — zang-laydi...

Odam — fikrlasagina odam. Uni fikrlashga o'rgatadigan, ODAM qiladigan yagona unsur — kitob. Ammo biz u ma'dandan ancha olislab ketdik. Hozirgi texnika-texnologiyalar rivojlangan zamonda kitob o'qish juda mushkul yumushga aylanib qoldi. ODAM bo'lish qiyinlashdi. Kitobni targ'ib qilish, kitobga qaytish ayniqsa hozir biz uchun kechagidan ancha muhim.

Kitobxonlik bejiz davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani yo'q. Bu borada anchayin ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. Xabaringiz bor, Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2020–2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi tas-

diqlanib, unga ko'ra har yili aprel oyining birinchi haftasida "Kitobxonlik haftaligi"ni o'tkazish rejalashtirilgan edi.

Kuni kecha Yoshlar ijod saroyida tadbiring ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda maktab o'quvchilari, talabalar, shoir va yozuvchilar, noshirlar, tashkilotchi idoralarning mas'ul mutasaddilari ishtirok etdi.

Haftalik doirasida 30 dan ortiq yetakchi nashriyotlarda so'nggi yillarda chop etilgan 100 ga yaqin kitobning taqdimotlari, ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning 580 yilligi, O'zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripovning 80 yilligi, Xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning 80 yilligi, shuningdek, o'zbek estrada san'atining asoschisi Botir Zokirovning 85 yilligiga bag'ishlangan madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi.

AOKA, Yoshlar ishlari agentligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi, Xalq ta'limi va ziriqli, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Fanlar akademiyasi, MTRK, O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan ushbu tadbir kitobsevarlar uchun chinakam bayram bo'lishi shubhasiz.

Humoyun QUVONDIQOV
Burhon RIZOQULOV olgan suratlar.



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4623. Tiraj 9124.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mual-lifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.